


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
Z.M. BOBUR NOMLI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI
4-BOSQICH “I” GURUHI TALABASI
KARIMOVA MUHABBATNING
BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**



***Mavzu: Jalaquduqlik “Katta terror” qurbonlari
Jiyamuradov Xo‘jamberdi, Jaynoqov O‘rozboy, Madrahimov
Isroil, Mirzaqulov Mirzaxoldorning hayot yo‘li va qismati***

Ilmiy rahbar:

t.f.d.prof. R.T.Shamsutdinov.

ANDIJON - 2011

MUNDARIJA

I.Kirish.....	4
II.1-Bob.Jalaquduq tumanida kollektivlashtirish, quloqlashtirish siyosati.....	13
2-Bob.“Katta terror” qurbonlarining hayot yo‘li va taqdiri.....	33
3-Bob.Qatag‘on qurbonlarining hozirgi avlodlari.....	51
III.Xulosa.....	62
IV.Foydalanilgan adabiyotlar.....	65
V.Ilovalar.....	67

Kirish

Jafokash xalqimiz asrlar davomida ne-ne og‘ir sinovlar mashaqqatli kunlarni ko‘rmadi o‘z ozodligi, erkinligi, tinch hayoti yo‘lida kurashib behisob qurbonlar bergan ota-bobolarimiz jasorati tarixi xotiramizdan hech qachon o‘chmaydi.

Islom Karimov.

Sovetlar davrida qo‘llangan qatag‘on siyosati va uning fojeali oqibatlarining o‘rganilishi hozirgi va kelgusi avlodni mustaqillikning qadriga yetishga va uni ko‘z qorachig‘iday avaylab asrashga o‘rgatadi.

Har qaysi xalq ma‘naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya‘ni, Prezidentimiz ta‘riflariga ko‘ra, tarixiy xotira tuyg‘usi to‘laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o‘tgan yo‘l o‘zining barcha muvaffaqiyatlari bilan xolis va haqqoniy o‘rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo‘ladi.¹

Biz bu masalaga ana shunday ilmiy asosda yondashib, qadimiy tariximizni o‘rganish va baho berishda uning biror bir davri yoki jabhasini e‘tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qildik. Jumladan, mustamlakachilik va sovet davridagi ommaviy qatag‘onlar paytida zulm va zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan, istiqlool yo‘lida jon fido etgan ajdodlarimizning hurmati va xotirasini joyiga qo‘yish ularning el-yurt ozodligi yo‘lidagi ishlari qoldirgan merosini izlash va o‘rganishni aynan ana shunday ma‘naviy negizida yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rish mumkin.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1998 yil 26-iyunda respublikamizning bir guruh olimlari bilan uchrashuvi va uning mantiqiy davomi bo‘lgan Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risidagi qarori tarix fani taraqqiyotida mutlaqo yangi davrni boshlab berdi. O‘zbek xalqi davlatchiligi konsepsiyasi mazkur qarorga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, “O‘zbek xalqi davlatchiligi tarixini mustabid sovet tuzumi davrini har tomonlama keng yoritish nihoyatda zarurligi alohida ta‘kidlandi. Shu nuqtai nazardan sovet rejimining O‘zbekistonda olib borgan qatag‘on siyosati dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov istiqloolga erishgan dastlabki vaqtlardayoq “asossiz tarzda qatag‘on qilingan kishilarning or-nomusi, qadr-qimmati, pokiza nomini tiklashni” birinchi galdagi burch deb bilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 1mayda qabul qilgan “qatag‘on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to‘g‘risidagi farmonida shunday deyilgan: El-yurtimiz ozodligi va erkinligi yo‘lida xalqimizning qadr-qimmati, or-nomusini milliy an‘analarimiz va urf-odatlarimizni himoya qilishda bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda qurbon bo‘lganlar xotirasi avlodlar yodida abadiy saqlanib qoladi. Mustabid tuzum davrida million –millionlab begunoh insonlarning umri xazon bo‘lganini, qancha-qancha oilalar xonavayron bo‘lib qancha-qancha go‘daklar yetim qolganini tarix bugungi va kelajak avlod xech qachon unutmaydi.”¹

¹ Каримов .И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч, -Т.:Маънавият, 2008,-Б-97.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қатағон қурбонларини ёд этиш кунини белгилаш тўғрисида”ги 2001 йил 1-майда қабул қилган фармонидан. Халқ сўзи, 2001, 2-май.

Prezidentimiz farmoni bilan qatag'on qurbonlarini yod etish marosimi har yili 31 avgust kuni Mustaqillik bayrami arafasida poytaxtimiz Toshkent shahridagi "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasida o'tkazilishi belgilab qo'yildi.

Davlatimiz rahbarining 1999 yil 12 mayda e'lon qilingan farmoyishida sho'ro tuzumi davrida qatag'on qurbonlari bo'lgan minglab fidoyi insonlar shahid ziyolilar xotirasini abadiylashtirish hayoti va faoliyatini boy ilmiy ijodiy merosini o'rganish zarurligi alohida ko'rsatib o'tilgan. O'sha yili 22 iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Vatan va xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoiylar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida" qaror qabul qildi.

Ma'lumki sobiq SSSR hududida 1937-53 yillarda mudhish ommaviy siyosiy qatag'onlar amalga oshirilgan edi. Uning salbiy oqibatlarini o'zimizda tasavvur etish uchun birgina O'zbekiston bo'yicha qariyb 100 ming kishi qatag'onga uchrab, 13 ming nafari otib tashlanganini eslash kifoya. Insoniy qadr-qimmatini toptalgan, hayoti poymol etilgan bu odamlar orasida nafaqat ziyolilar va arbob balki yuzlab oddiy insonlar yurtimizda istiqomat qilgan barcha millat va elatlarni vakillari bor edi. Shu davrda qancha-qancha odamlarning o'z oilasidan judo bo'lgani ayollar bevalikda, go'daklar yetimlikka mahkum etilganini minglab mirishkor dehqonlarning "quloq" sifatida olis o'lkalarga surgun qilinganini inobatga olsak xalqimiz boshiga tushgan bu fojearning dahshati yanada yaqqol namoyon bo'ladi.¹

El-yurtimiz taqdiriga dahldor bo'lgan tarixiy adolatni tiklash, xalqimiz va millatimizning yaqin o'tmishidagi yopiq sahifalarni to'la ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarashni shakllantirish begunoh qurbon bo'lgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Ana shu insoniy burchimizni ado etish maqsadida 2000 yili poytaxtimizning Yunusobod tumanida qatag'on yillarida xalqimizning minglab asl farzandlari qatl etilib, nom-nishonsiz ko'mib tashlangan, necha yillar qarovsiz qolib kelgan Bo'zsuv kanali sohilidagi Alvasti ko'pri deb nom olgan jarlik o'rnida "shahidlar xotirasi" hiyoboni keyinchalik shu nomda muzey va jamg'arma tashkil qilindi. 2001 yildan e'tiboran 31 avgust yurtimizda qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

Bu marosimda Prezidentimiz "Mohiyat e'tibori bilan istibdod zulmini o'z boshidan kechirgan xalqimiz taqdiri begunoh odamlarning mustabid siyosati tegirmonida, tarix g'ildiragi ostida nohaq ezilib-yanchilib ketgani o'z ifodasini topishi darkor".

Biz qatag'on qurbonlari haqida gapirganda, ularni yodga olganda, faqat "Shahidlar xotirasi" majmui qad ko'targan Bo'zsuv sohillarini emas balki, Farg'ona vodiysini, Samarqand va Buxoroni, Qashqadaryo va Surxon zaminini, Xorazm va Qoraqalpog'istonni, muhtasar qilib aytganda butun O'zbekistonni aniq ravshan tasavvur qilishimiz, har bir shahar va qishloqdan qanchadan-qancha ajdodlarimiz qatag'on etilganini unutmagan holda ularni xotirlashimiz darkor.

Davlatimiz rahbari qayta-qayta ta'kidlaganidek, tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Tarixiy adolatni tiklamasdan turib adolatli jamiyat qurish mumkin emas. Shu ma'noda yurtboshimiz olimlar adabiyot va san'at ahli oldiga qo'yayotgan xayrli vazifa har birimizdan masalaga katta ma'suliyat keng va atroflicha qarashni taqozo etadi.

O'zbek xalqining ozodlik va mustaqillik uchun olib borgan ko'p yillik mashaqqatli kurashining haqqoniy va to'laqonli aks ettirish mustabid tuzum davridagi ommaviy qatag'onlar tufayli qurbon bo'lgan insoniylik sha'ni, qadr-qimmatini toptalgan vatandoshlarimizning hurmati va xotirasini joyiga qo'yish yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirishda "Shahidlar xotirasi" muzeyining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyining bu boradagi o'rni va ta'siri muhimligi ko'zda tutilib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 2008 yil 5 mayda "qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida maxsus qaror chiqardi.

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият-енгилмас куч,- Т.: Маънавият,2008,-Б-98-бет.

Mavzuning dolzarbligi yana shunda ko‘rinadiki mustabid tuzum davrida yaratilgan tarixiy adabiyotlarda 1920-1930 yillardagi ijtimoiy siyosiy xayot yangi tipdagi siyosiy rejimga o‘tish davridagi ommaviy qatag‘onlar sudlovsiz repressiya qilinish faoliyati umuman yoritilmadi. Hozirgi davrda vatanimizda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yangicha mushohada qilish xolisona o‘rganish sari dadil qadam tashlanmoqda. Qatag‘on siyosati mavzuining kollektivlashtirish bilan uzviy bog‘liqlikda quloqlashtirish surgun yo‘nalishlarini o‘rganishda ham jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

Prezidentimiz Islom Karimovning bu borada chiqargan qaror va farmoishlari ushbu mavzuning milliy tarixshunosligimizda yanada dolzarb muammoga aylanishiga muhim omil bo‘lib hizmat qildi.

Mavzu tarixshunosligi va manbashunosligi. 2001 yil 21-sentabrda ishga tushgan “Meros” ilmiy amaliy xalqaro ekspeditsiya xayriya jamg‘armasi ham ayni shu mavzuni tadqiq etmoqda. Uning O‘zbekiston viloyatlari bo‘yicha uyushtirgan bir necha ekspeditsiyalari vaqtida sobiq quloqlar surgun qilinganlarning xotiralari suratlari saqlanib qolgan xujjatlari to‘plandi. Shimoliy Kavkazga, Ukrainaga, O‘rta Osiyoning ichki rayonlariga surgun qilingan quloqlarning katta bir qismi aniqlandi, ularning qismati, taqdiri xaqida ancha materiallar yig‘ildi

Professor Rustambek Shamsutdinovning “O‘zbekistonda Sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari” nomli monografiyasi mazkur mavzuni o‘rganish ishiga munosib xissa bo‘lib qo‘shildi. Asarda O‘zbekistonda amalga oshirilgan quloqlashtirish siyosati to‘la qonli ochib berilgan.

Fidoiy olim o‘z ilmiy izlanishlarining maxsuli sifatida “Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun” (O‘rta Osiyo respublikalari misolida) nomli fundamental asarini yaratdi. Ushbu asarda O‘rta Osiyo respublikalarida amalga oshirilgan kollektivlashtirish, quloqlashtirish, surgun siyosatining mohiyati to‘la ochib berilgan.

Professor R. Shamsutdinov boshchiligidagi bir guruh tarixchi olimlar (E. Yusupov, A. Mamajonov, X. Qurbonov va boshqalar) “Meros” xalqaro ekspeditsiyasi va “Shaxidlarning xotirasi” xayriya jamg‘armasi bilan xamkorlikda “Katta terror”ga bag‘ishlangan 2005-2009 yillarda Sharq nashriyotida besh kitobdan iborat xujjatlar va materiallar to‘plamlari chop etildi. Birinchi uchinchi kitoblarida xujjatlar rus tilida, ikkinchi va beshinchi kitoblar o‘zbek tilida nashr qilingan¹.

Sovet davlati va bolsheviklar partiyasining xabarlar tomonidan 1937-1938 yillarda qabul qilingan turli qarorlar ko‘rsatmalar joylardagi maxalliy xabarlar yuborilgan turli teleqrammalar va xatlar xamda respublika xabarlarining markazga yo‘llagan ko‘plab malumotlari va axborotlarida Markazning repressiv siyosati ochib berilgan.

Besh kitobga kiritilgan xujjatlarning aksariyati 1937 yilga oid qatag‘on mavzuidagi arxiv materiallari bo‘lib, so‘nngi kitob 1938 yil qatag‘oniga bag‘ishlangan.

Xujjatlar to‘plamida repressiv organlar tomonidan qo‘shimcha ishlari qatag‘on qilingan fuqorolarning qamoqqa olinish jarayoni maxbuslarning anketasi, tergov protokollari, ayblov xulosasi, hukm qilingan maxbuslarning arizalari, xayrlashuv maktublari, ularning o‘limi va tirik qolganlarning tushkunlikdagi hayoti ko‘rsatilgan bo‘lib, ushbu arxiv materiallari bugungi kunda ham o‘zining keskin va shiddatli ruhi bilan o‘quvchi qalbini larzaga soladi.

¹ Репрессия. 1937-1938 годы, Выпуск 1, хужжатлар ва материаллар. Тузувчилар. Шамсутдинов Р.Т. Каримов Н.Ф. Юсупов Э.Ю. Т.: Шарқ, 2005.

2 Шамсутдинов Р.Т. Қатағон қурбонлари (1937 йил 10 август -15 ноябр). 2-китоб. Т.: Шарқ, 2007.

3 Репрессия. 1937-1938 гг. Выпуск 3. жертвы Большого террора из Узбекистана, 1937 йил ноябр, Тузувчилар, Шамсутдинов Р.Т, Юсупов Э.Ю, Мамажонов А, Дўсматов. Э.Т.: Шарқ, 2007.

4 Репрессия. 1937-1938 гг. Документы и материалы, Выпуск 4, Сост: Шамсутдинов, Р, Каримов, Н, Юсупов, Э, Т.: Шарқ, 2005

5 Қатағон қурбонлари. 1938 йил февраль. Сентябрь. 5-китоб. Тузувчилар. Шамсутдинов Р.Т. Қурбонов Х.Р. Расулов Ж. Эгамбердиев. Ф. Бекиметова. У. Т.: Шарқ, 2009.

Birinchi kitobda SSSR oliy sudining harbiy kollegiyasi sudi tomonidan O'zbekiston SSR da javobgarlikka tortilgan ma'sul hodimlar ro'yxati hamda respublikamizdan qatag'on qilingan 220 nafar davlat siyosat va jamoat arboblarning qisqacha tarjimai hollari keltirilgan. Kitobda GULAG joy olgan bo'lib unda SSSR da 1973-1961 yillarda mavjud bo'lgan. Toshkentda joylashgan O'rta Osiyo ahloq tuzatish mehnat lagerlari haqida ham ma'lumotlar bor. Mahbuslarning aksariyati turli kasalliklardan ochlik va tashnalikdan, zulm va qiynoqlardan tinka-madorini quritadigan mehnatdan o'lib ketishgan, tirik qolganlari esa bir umr nogiron bo'lib qolgan. GULAG lagerlaridagi mahbuslar orasida o'lim holati yuqori darajada bo'lgan, ayniqsa 1937-1938 yillarda mahbuslarning o'limi ko'p qayd etilgan. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, 1937 yili GULAG lagerlarida 908624 nafar mahbus bo'lib ulardan 25375 nafari o'lib ketgan.

Quloqlarni sinf sifatida tugatish tarixi sobiq ittifoq miqyosida ma'lum darajada o'rganilgan. Ammo bu asarlarda ayrim respublikalarda "quloq" xo'jaliklarining tugatilish jarayoni keng yoritilmagan. Masalan O'zbekistondagi "qulok qilish" siyosatining xususiyatlari ochib berilmagan. Bu asarlarda quloqlar havfli dushman, qishloq xo'jaligi, kolxoz tuzumi zararkunandasi sifatida qoralangan va ularning sinf sifatida tugatish ijobiy voqea tarzida talqin etilgan.

Jamoalashtirish va quloqlashtirish tarixini o'rganishning ikkinchi bosqichi 80 yillar oxiri va 90 yillardan boshlab u hozirda ham davom etmoqda. Bu davrda masalaga yangicha qarash, yangicha talqin etish eng avvalo sobiq ittifoqning markazida yuz berdi. Sovetlar davrida agrar masala tarixida qalam tebratgan olimlarning o'zlari avvalgi konsepsiyalariga, fikrlariga tamomila zid chiqib tarixiy haqiqatni tiklash borasida tahsinga sazovor ishlarga qo'l urdilar. Bu o'rinda B.P. Danilov, I.Ye.Zelenin, D. Volkogonov va boshqalarning yangi ilmiy tadqiqotlarini eslash maqsadga muvofiqdir. Mazkur tadqiqotlarda "quloqlar" aslida kim bo'lganligi ularning iqtisodiy-siyosiy qiyofasi quloq qilish siyosatining mohiyati va uning fojeali oqibatlari tahlil qilingan.

Ushbu mavzuni tamomila yangicha metodologik yangicha ruhda yoritishni akademik R.H. Aminova boshlab berdi. Olima jamoalashtirish va quloq qilish tarixini avvalgi noto'g'ri talqinlardan sohtalashtirish, buzishlardan tozalashni voqea va hodisalar aslida qanday kechgan bo'lsa shundayligicha taqdim etish namunasini namoyish etdi. Uning 90-yillarda e'lon qilgan ishlari o'zbek tarixshunosligiga katta xissa bo'lib qo'shildi. Bu ishlarda mavzuning istiqbolli yo'nalishlari ham ko'rsatildi.¹

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Quloqqa tortilgan, qamoqqa tortilgan, surgun qilingan va "katta terror" da qatag'on qilingan Jalaquduqlik Jiyamuratov Ho'jamberdi, Jaynoqov O'rozboy, Madrahimov Isroil, Mirzaqulov Mirzaholdorlarning fojeali achchiq qismati va taqdiri birinchi bor ilmiy jihatdan o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishda quyidagi vazifalarni o'z oldimga maqsad qilib oldim:

Mavzuning dolzarbligi, tarixshunosligi, manbashunosligi, ilmiy yangiligini o'rganishni;

Jalaquduq tumanida amalgam oshirilgan kollektivlashtirish, quloqlashtirish siyosatini o'rganishni;

"Katta terror" siyosatini mohiyatini ochib berishni;

Jalaquduqlik qatag'on qurbonlari: Jiyamuratov Xo'jamberdi, Jaynaqov O'razboy, Madrahimov Isroil, Mirzaqulov Mirzaxoldorlarning hayot yo'liva taqdirini o'rganishni o'z oldimga maqsad qilib oldim.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shu bo'ldiki, qatag'onga uchragan Jalaquduqlik Jiyamuratov Xo'jamberdi, Jaynoqov

¹ Шамсутдинов Р.Т. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. - Т.: Шарқ, -2001, -Б-12.

O'razboy, Madrahimov Isroil, Mirzaqulov Mirzaxoldorlarning hayot yo'li va taqdiri ilmiy asosda o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilova qismidan iborat.

1. Jalolquduq tumanida kollektivlashtirish, quloqqa tortish va uning oqibatlari.

1929-yil oxiridan boshlangan kollektivlashtirish, dehqonlarning asosiy ommasiga nisbatan zo'rovonlik va majbur qilishlik qo'rqitish repressiya qatag'on qilish sharoitida olib borildi. Kolxoz qurilishi juda ham ziddiyatli tarzda rivojlanib bordi. Bir tomondan haqiqatdan ham kambag'al batraklar bir qismining kolxoz uchun ixtiyoriy harakat qilishlari ma'lum shaklda yuz bergan. Ammo ikkinchi tomondan ma'muriy bosim tazyiq zo'rlash, o'rtahol dehqonlarni qamchilash orqali kollektivlashtirish yo'liga tazyiq bilan tortish jarayoni kechgan. Bunday bo'lishiga ko'p jihatdan 1929-yil 7-noyabrda "Pravda" gazetasida I. V. Stalinning "Buyuk burilish yili" nomli maqolasi ham sabab bo'lgan edi. Maqolada real hayotiy voqelik va dalillarga qarama-qarshi tarzda bir qator rayonlarda dehqonlar ommasining asosiy qismining eski, kapitalistik taraqqiyot yo'lidan yangi sotsialistik taraqqiyot yo'liga burib yuborishga erishildi dehqonlarning o'zida tub burilish yuz berdi, dehqonlar o'z orqasidan kambag'al va o'rta hollarning keng qatlamini ergashtirish, uyushtirishga erishdilar degan hayoliy fikrlar bayon qilingan edi.

Aslida esa o'shanda dehqonlar ongida hali kolxozlar foydasi uchun burilish mutlaqo sodir etilmagandi. Bunday o'zgarish o'rtahollar u yoqda tursin, hatto kambag'allarning ko'pchiligida yuz bermagan edi. Rasmiy statistika ma'lumotiga qaraganda, 1929-yil 1-oktabrda kolxozlar safida dehqon xo'jaliklari umumiy miqdorining atiga 7.6 % gina bor edi xolos. Bu degani barcha dehqon xo'jaliklarining 35%ni tashkil qilgan. Kambag'al batrak xo'jaliklar kolxozga kirmagan edi. Hatto bordiyu kolxozlar faqat kambag'al va batraklardangina tuzilgan edi, deb qaraladigan bo'lsa u holda o'sha kolxozlarga kirgan 7.6% kambag'al batraklarning to'rtidan bir qismini tashkil etgan edi. Shuning uchun Stalinning "Dehqonlar kolxozga qarab yo'l oldi, butun qishloqlar, volostlar, rayonlar, kolxozga kirdilar" deb aytgan so'zlari haqiqatdan tamomila uzoqda edi.

VKP(b) markaziy komitetning 1929-yil noyabr plenumi kollektivlashtirish har jihatdan tezlashtirish jadallashtirishga va bu jarayonning borishiga bevosita ta'sir qildi. Kolxoz qurilishi masalalari muhokama qilingan bu plenumda asossiz ravishda arzimasi kichik yutuqlar maqtalgan. Kollektivlashtirishdagi kamchiliklar inkor etilgan

Mamlakat hududi 3 guruh rayonlarga bo'linadi. Qaysi hudud qachon kollektivlashtirishni tugallashi belgilab berildi. O'zbekiston 3-guruhga kiritilgan bo'lib, kollektivlashtirish 1933-yil bahorida tugallanishi kerak edi. Ammo VKP(b) Markaziy Komitetining siyosiy byurosi tomonidan O'zbekistonda kollektivlashtirish juda sekin rivojlanayotgani tanqid ostiga olinadi. Bu esa Markazning O'rta Osiyodagi yugurdak dastiyori, bosh nazoratchisi O'rta Osiyo byurosi uchun ayni muddao bo'ladi. Shu bois u kollektivlashtirish va u bilan yondosh ravishda quloqqa tortish kompaniyasini avj oldirib yuboradi. O'rta Osiyo byurosi mintaqadagi milliy kompartiyalar ustidan hukmronlik qilar edi. Shu bois Markaz direktivasini O'zbekiston kompartiyasi va hukumati qanchalik zudlik bilan "Qoyilmaqom" qilib bajarsa O'rta Osiyo byurosining Moskva oldida yuzi shunchalik yorug' bo'lardi. Natijada Markaz direktivasini bajarish niqobi ostida O'zbekistonda ham kollektivlashtirish jadal suratlar bilan, mahalliy, milliy tarixiy sharoitlarni xisobga olmagan holda bir qator buzishlar hatto nuqsonlar orqali amalga oshirildi.

VKP(b) Markaziy Komiteti O'rta Osiyo byurosi 1930-yil 28-yanvarda quloqlarni sinf sifatida tugatish bilan bog'liq tadbirlar to'g'risida qaror qabul qiladi. Shundan keyin O'zbekistonda Kollektivlashtirish va quloq qilish kuchaygandan kuchayadi. O'sha qarorda "Kollektivlashtirish uchun kambag'al o'rta hol keng dehqonlar ommasining harakati inkor etib

bo'lmis dalil va qishloq xo'jaligini rekonstruksiya qilish va yuksaltirishning kuchli tayanchi bo'lib qoldi ” deyilgan g'irt asossiz fikr ilgari suriladi. Qarorda kolxozchilik harakati ko'p jihatdan qishloq xo'jaligini tez suratlar bilan texnikaviy jihatdan qayta qurollantirishga asoslanishi dehqonlarning ommaviy harakati asosida bir qator rayonlarda yoppasiga kollektivlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Ana shu “Ommaviy harakat” degan aqida asosida yoppasiga kollektivlashtirish o'tkaziladigan rayonlar ham belgilab berildi. Unga ko'ra, jumladan, O'zbekistonning Yangi Buhoro, Sariosiyo, Konimeh, Oqdaryo, Pastdarg'om, Yangiqo'rg'on rayonlarida yoppasiga kollektivlashtirish o'tkaziladigan bo'ldi.

Kollektivlashtirish o'tkaziladigan bu hududlarda partiyaviy rahbarlik kuchaytiriladi, buning uchun Markaz va okruglarga rahbar hodimlar yuboriladi. Har bir rayonda 3 kishidan iborat partiyaviy rahbarlar tayinlanadi.

Qarorda kolxoz tuzilishi 3 shaklda olib borilishi takidlangan. Birinchisi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish shirkati bo'lib unda butun qishloq xo'jaligi inventarlari, ot-ulov, tortuv kuchlari, va yerni birgalashib ishlovchilar umumlashtirilgan. Ikkinchisi qishloq xo'jaligi arteli bo'lib bunda barcha ishlab chiqarish vositalari yer va butun ishlab chiqarish jarayoni umumlashtirilgan. Uchinchisi, qishloq xo'jalik komunasi bo'lib u ijtimoiy ishlab chiqarish taqsimotidan iborat bolgan.¹

Qarorning 6-bo'limida quloqlarni sinf sifatida tugatish uchun amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan. Bu ishni amalga oshirishda batrak va kambag'allar keng ommasi bevosita ishtirok etishlari juda faol bo'lishlari lozimligi ko'rsatilgan.

Quloq boy ekspluatator unsurlarni yer, mehnat qurollari va ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilish vazifa qilib qo'yildi. Quloqlarni sinf sifatida tugatish quyidagi tadbirlar orqali amalga oshiriladigan bo'ldi. Birinchidan barcha quloq xo'jaliklari, yakka soliq to'lovchilar, ekspluatatorlar xo'jalik belgisi bo'yicha saylov huquqidan mahrum qilinganlar tugatilishi ko'zda tutildi. Ikkinchidan quloqlardan sug'orma yerlari, hovli-joyi, dalalardagi dov-daraxtlari, ishchi hayvoni, oziq-ovqat hayvoni, murakkab qishloq xo'jalik inventari, qayta ishlovchi ishlab chiqarish korxonalarini tortib olinib kolxozlarning bo'linmas fontlariga berilishi chorikorlik bilan bog'liq barcha bitimlar qarz majburiyatlari quloqlar xo'jaligi bo'yicha shuningdek sudxo'rlik majburiyatlari bekor qilinishi ham ko'zda tutilgan.

Uchinchidan chek yerlardan va ishlab chiqarish vositalaridan mahrum qilingan quloq xojaliklari yoppasiga jamoalashtirish rayonlaridan ko'chirib yuborilishi kolxozlashtirishga qarshi faol kurash olib boruvchi ashaddiy quloqlar jinoiy javobgarlikka tortiladigan bo'ldi.

Kolxozchilik xarakati va quloqlarni sinf sifatida tugatish sari olib borilayotgan partiya va sovet xukumatining bunday siyosati quloq unsurlarning dushmanlik, qoprovchilik faoliyatini avj oldirishlari etiborga olinib mavjud xolatning oldini olish uchun respublikalar xukumatlari qarorlar qabul qilib quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari ko'rsatilgan: 1) quloqlarning ishlatilmay yotgan yerlarini tortib olib kolxozlar yoki kambag'allarga berish 2) jonli va jonsiz inventarlarni xisobga olib inventar egasiga ularni saqlash masuliyatini yuklash 3) joriy ekish mavsumidan boshlab tugatilmagan quloq xojaliklarining jonli va jonsiz qishloq xo'jalik inventarlari kolxoz yoki kambag'allar dalalarida xashar yo'li bilan foydalanishga erishish, yagona qishloq xo'jaligi solig'i bo'yicha quloq xo'jaliklariga texnikaviy ekinlar uchun berilayotgan barcha imtiyozlarni bekor qilish va boshqalar. O'rta Osiyo byurosi qarori so'ngida mintaqadagi respublikalarda yoppasiga jamoalashtirish va quloqlarni sinf sifatida tugatishni o'tkazish bo'yicha tayyorgarlik ishlarining mutloqo qoniqarsizligi takidlab o'tildi.

Jamoalashtirish suratlarini shu qadar suniy jadallashtirish tezlashtirish yoppasiga jamoalashtirish rayonlarini e'lon qilish manosi shuningdek, O'rta Osiyodagi ayrim respublikalarning okruglari va rayonlari o'rtasida jamoalashtirish foizlarini belgilashda nosog'lom musobaqani vujudga keltirgan edi. Quloqlarni sinf sifatida tugatish sari

¹ Шамсутдинов Р,Т, Мамажонов А, Шимолий Кавказ сургунидаги юртдошлар кismати.-Т.: Шарқ, 2005,-Б-61

mudhish siyosat 1929-yil 7-noyabrda "Pravda,, gazetasida Stalinning "Buyuk burilish yili" maqolasi e'lon qilingach amalga oshirila boshlandi. Maqolada "dehqonlarda tub burilish yuz berdi partiya kambag'al va o'rta hol dehqonlarni o'z atrofida jipslashtirib kolhozga olib kirishga erishdi ammo bu ishga qora kuchlar quloqlardan tortib poplarga fashistlar va o'ng opportunistlargacha ashaddiy shiddadli qarshilik ko'rsatmoqda" degan yolg'on ma'lumot va hulosa aytilgandi. Quloqlarni tugatish jamoalashtirish uchun moddiy baza bo'ldi. 1929-yil ohiridan 1930-yil ortalarigacha 320 mingdan ziyod quloq xo'jaliklari tugatildi. Ularning 175million so'm qimmatga ega bo'lgan mulki buyumlari kolxozlarning bo'linmas fondiga topshirildi.

Quloqlarni tugatish oqibatida qishloq eng tadbirkor epchil o'ziga to'q, mustaqil ish ko'ruvchi xo'jalik yurituvchi dehqonlardan maxrum bo'ldi. Quloq qilish siyosati mudxish siyosat bo'lib jamoalashtirish bilan bir vaqtda bu siyosat birga qo'shib olib borildi. Bu siyosat boshidan ohirigacha zo'ravonlik jabr zulm holatida olib borildi. Quloqni aniqlash uni ijtimoiy jihatdan asoslash zo'rma-zo'rakichilik, shoshma-shosharlik asosida o'tkazildi. Aniq ko'rsatma bo'lmaganligidan quloq qilinganlarning bor mol-mulki, uy ro'zg'or buyumlari xatto piyola, likopcha va boshqa uy ro'zg'or buyumlari ham ro'yhatga olinib musodara qilingan.

Quloq qilish, jamoalashtirish ishlariga aksariyat chalasavod yuqoridan berilgan topshiriqqa aqli yetmaydigan, qishloq xo'jaligi arteli Nizomini bilmaydigan, saviyasi past kishilar rahbarlik qilishdi. Oqibatda zo'rovonlik, zug'um, o'ch olish, o'rta xol xatto kambag'al dehqonlarni quloqlar ro'yhatiga tirkab yuborish xollari ko'p bo'ldi. Yuqorining ko'rsatmasiga muvofiq quloqlashtirish jamoalashtirishning natijasi bo'lishi yani avval ixtiyoriy ravishda kolhoz tuzish keyin quloqlarni sinf sifatida tugatish ishlari amalga oshirilishi kerak edi. Bu masala qishloq sovetlari qoshidagi kambag'al-batraklar kengashida muhokama qilindi. Joylarda esa aksincha avval dehqonlar quloq qilindi, keyin kolxozlar tuzildi. Odamlarga agar kolhozga kirmasang hibsga olinib quloq qilinib badarg'a qilinasan, yer suvdan, g'alladan, sanoat mollaridan, saylash va saylanish xuquqidan mahrum qilinasan kabi do'q qo'rqituvlar bilan jamoalashtirish o'tkazildi.

Stalin va uning atrofida gilar kolhoz qurilishini tezlashtirish to'g'risida ko'rsatma beradilar. O'rta Osiyoda ommaviy jamoalashtirish arafasida uni iloji boricha qisqa muddatda yakunlash to'g'risida noto'g'ri fikrlar hukmron edi. Dehqonlar kolhozga kirishga majbur etildilar. Qarshilik ko'rsatganlar qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligidan qat'iy nazar quloq qilindilar. Qarabsizki bir oy o'tar-o'tmas birorta kolhoz bo'lmagan tumanlar ham yuz foiz jamolashgani haqida hisob berdilar.

Quloqlarni sinf sifatida tugatishning o'tkir tig'i birinchi navbatda o'rta xol dehqonlarga qaratildi.¹

O'rta xol dehqonlarning kolhozga kirishga majburlanishi saylov xuquqidan mahrum etilishi va quloq qilinishi qishloqning keng qatlami o'rtasida xavotirlik uyg'otdi qishloq aholisini sarosimaga soldi. Ko'pgina tumanlarda o'rta xol va yakka xo'jaliklar markazdan yuborilgan ko'rsatmalarga ko'ra qishloq xo'jalik jihozlari bilan taminlanishdan mahrum qilindi. Andijon okrugi Kosonsoy tumanida saylov xuquqidan mahrum etilgan 1770 kishining 394 tasi quloq deb hisoblangan, o'rta xollarning 536 nafari esa dindor deb hisoblangan dehqonlar bo'lgan.

Sovet davlati va Kompartiya qisqa muddatli chekinishdan so'ng 1930 yil kuzidan boshlab jamoalashtirish va quloq qilish xarakatining yanada shiddatliroq to'loqini boshlab yubordi. Natijada 1930 yilning 1 sentyabrigacha O'zbekistonda 229000 ta dehqon xo'jaliklari jamoalashtirildi. Kolxozlar soni 3524 taga yetdi. Ayni paytda quloqlarga qarshi kurash ham kun sayin kuchayib bordi.

Yoppasiga kollektivlashtirishni o'tkazishga raxbarlik qiluvchi respublika shtabi va komissiyasi tashkil qilinib unga asosan O'zKP(b)MKning masul raxbar xodimlari kiritildi. 1930

¹ Шамсутдинов Р. Т. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари.- Т.: Шарқ, 2001, -Б-72..

yil uchun kollektivlashtirish rejasi tuzilib tasdiqlandi. O‘zKP(b)MKning 1930 yil 17-fevraldagi qarori bilan respublikadagi 17 rayon yoppasiga kollektivlashtirish rayoni deb belgilandi. Bu rayonlardan 4 tasi Asaka, Shahrixon, Jalaquduq, Norin rayonlari Andijon okrugi tarkibiga kirar edi. Andijon okrugida ham kollektivlashtirish bo‘yicha shtablar tashkil qilindi, ular kollektivlashtirish e‘lon qilingan rayonlarda amaliy raxbarlikni bajarar edi. Bu organlar Markaz ko‘rsatmalarini bajarish uchun kompaniyaning boshida turib asosan zo‘ravonlik usullariga e‘tiborni kuchaytirdilar.

1930 yilning 18-fevralida Andijon okrugi ijroiya komiteti “Andijon okrugidagi yoppasiga kollektivlashtirish rayonlarida tashkiliy-amaliy ishlar to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Unda kollektivlashtirish o‘tkazish belgilangan rayonlarda yuqoridan belgilab berilgan ko‘rsatmalarni bajarish zarurligi va uni belgilangan muddatda bajarish chora tadbirlari ko‘rsatib o‘tilgan edi.

Andijon okrugida ham ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlarining butun faoliyati kollektivlashtirishga qaratildi. Qishloq ahlini kolxozlarga kirishga tashviq qilish uchun ishchilar sinfi ham jalb qilindi. VKP (b) MK ning 1929 yil noyabr plenumi qarori bilan qishloqlarga kamida 25000 ishchini yuborish taklif etildi, ular qishloqlarda “Agrar inqilob”ni avj oldirishlari kerak edi.

Paxtachilik rayonlarida qishloq xo‘jaligi hammadan ko‘p tovar beradigan kooperatsiya tizimi rivoj topgan va dehqonlar katta tajribaga ega bo‘lgan Farg‘ona vodiysi rayonlarida kollektivlashtirish harakati tez suratlar bilan o‘sa boshladi. Barcha joylarda bo‘lganidek, jamoa xo‘jaliklariga dehqonlarni birlashtirish xarakati amaliy jihatdan buzg‘unchilik harakatiga aylanib ketdi. Dehqonlarni zo‘rlilik bilan kolxozlarga kirishga majbur etdilar. Qarshilik ko‘rsatganlar, norozilik bildirganlar ijtimoiy mansubligidan qattiy nazar quloq qilib yuborildi. Ko‘pincha qishloqlarning axolisini bu yerdan ko‘chirib yuboramiz, suvdan mahrum qilamiz deb qo‘rqitib kolxozga kirishga majbur qilardilar.

Ma‘muriy tazyiq natijasida oradan bir necha hafta o‘tganidan keyin xali birorta ham kolxoz tuzilmagan ayrim rayonlar kollektivlashtirishni tugatganliklari haqida ma‘lumot berdilar. Chunonchi Andijon okrugining Asaka rayonida dehqon xo‘jaliklarining “yuz foiz jamoalashtirilganligi” xaqida ma‘lumot 1930 yil fevral oyi boshidayoq Respublika shtabiga yuborildi. 1930 yil 24 fevralida Jalaquduq rayonida 59 ta kolxoz tuzilib bularga 13 mingdan ziyod xo‘jalik birlashtirildi. kollektivlashtirish Andijon okrugi bo‘yicha 1930 yilning mart oyi boshlariga kelib kolxozlarga biriktirilgan dehqon xo‘jaliklarining soni 98.7 ming kishiga yetdi. 1930 yil fevral oyi ortalaridagi malumotga ko‘ra, Andijon okrugi bo‘yicha yoppasiga kollektivlashtirish rayonlari deb e‘lon qilingan rayonlarda kollektivlashtirish ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘lgan.

1. Asaka rayoni-jami dehqon xo‘jaliklari 14522 ta bo‘lib ulardan 13682 tasi kolxozlarga kiritilgan kollektivlashtirish korsatkichi 94.2 foiz.

2. Shaxrihon rayoni –jami xo‘jaliklar 11214 ta bo‘lib ulardan 10542 tasi kolxozlarga kiritilgan kollektivlashtirish ko‘rsatkichi 94.0 foiz.

3. Baliqchi rayoni jami xo‘jaliklar 9310 ta bo‘lib ulardan 8752 kolxo‘zlarga kiritilgan kollektivlashtirish ko‘rsatkichi 94.0 foiz ko‘rsatkichi 94.0 foiz.

4. Jalaquduq rayoni- jami dehqon xo‘jaliklari 13526 ta bo‘lib ulardan 12715 tasi kolxozlarga kiritilgan, kollektivlashtirish ko‘rsatkichi 94.0 foiz.¹

Kollektivlashtirishning tezlik shoshma-shosharlik bilan o‘tkazila boshlanishi natijasida respublika bo‘yicha 1930 yil martda dehqon xo‘jaliklarining 47 foizi kolxozlarga biriktirildi, xolbuki, 1929 yil arning oktabrgacha kolxozlarga dehqon xo‘jaligi 3.4foizi birikkan edi xolos²

¹ Трагедия среднеазиатского кишлака; коллективизация раскулачивание ссылка 1929-1955 гг Документы и материалы. Том 1. под редакцией Д.Алимовой. (Сост. Р.Т.Шамсутдинов Б.М.Расулов)Т.: Шарқ, 2006,- стр.- 74.

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т.: Шарқ, 2001, -Б-349.

Respublikadagi oʻrtacha koʻrsatkich bilan Andijon okrugi rayonlaridagi koʻrsatkichlarni taqsimlaganda Andijonda kollektivlashtirish kompaniyasi qanchalik tez suratlarda olib borilganligi namoyon boʻladi.

Mahalliy raxbarlarda kollektiv xoʻjaliklari xaqida yetarlicha tushuncha yoʻqligi bois, tashkil etilgan kolxozlarda uy joylarni, mayda xayvonlarni, parrandalarni xatto idish tovoqlarni ham umumiy lashtirish xolatlari Andijon okrugida ham kuzatildi. Kollektivlashtirishda ixtiyoriylikka umuman amal qilinmadi. Andijon okrugi rayonlarida ham shoshma-shosharlik, kollektivlashtirish surati boʻyicha kim oʻzdi musobaqasi avj oldi. Joylarda qonunbuzarlik ,majburlash ,nohaq soliq solish, quloq qilish, surgun qilish dagdagʻa bilan qoʻrqitish, xullas qatagʻon qilish siyosati avj olib ketdi. Mahalliy raxbarlar qanday qilib boʻlsa ham yuqori natijalarga erishish uchun xech qanday xarakatdan qaytmas edilar. Bunday zoʻrovonliklarning ortib borishi tabiiy ravishda xalqning noroziligini keltirib chiqarishi muqarrar edi .

Ayniqsa, oʻziga toʻq ishbilarmon dehqon xoʻjaliklarini quloq qilinishi hammasidan oshib tushdi. Bu mudxish tadbir VKP(b) Markaziy Komitetining 1930 yil 20 fevralda qabul qilgan “ Kollektivlashtirish va iqtisodiy jixatdan orqada qolgan milliy rayonlarda quloqlarga qarshi kurash toʻgʻrisida”gi qarori¹ asosida amalga oshirila boshlandi. 1930 yil 17 fevralda Oʻzbekiston KP(b) Markaziy Komiteti “Kollektivlashtirish va quloqlarni tugatish haqida”qaror chiqardi. Qarorda yoppasiga kollektivlashtirish oʻtkazilayotgan rayonlarda quloq xoʻjaliklariga qarshi kurash va ularni tugatish tadbirlari koʻrsatib berilgan edi .

Kolxozlar tuzish xarakatidagi notoʻgʻri yoʻldan borish kollektivlashtirishning suniy ravishda avj oldirishdangina iborat boʻlmay mahalliy partiya va sovet hodimlarining aksariyat qismining chalasavodligi, siyosiy jixatdan noʻnoqligi bilan ham belgilanadi. Ularning juda koʻpchiligi yuqoridan berilgan koʻrsatmalarni mohiyatini toʻla tushunib yetmas edilar. Bu esa shundoq ham yuz berib turgan zoʻravonlik va majburlashlarni yanada suniiy ravishda kuchaytirilishiga olib kelar edi. OGPU materiallarida bu mintaqada 1929 yilning dekabr 1930 yilning yanvar oylarida maʼmuriy-zoʻravonlik choralar bilan “qogʻozdagi ”kolxozlar tuzilganligi aks ettirilgan. Umumxalq muhokamasiga esa 1929 yilda 1 oktabrgacha 7.3%, 1 dekabrgacha 13.7 % 1930 yilgacha 20.1%, 1 fevralgacha 37.7% 20 fevralgacha 50% 1 martgacha 58.6% xoʻjalik kollektivlashtirildi degan statistik maʼlumot berilgan, amalda esa, bu raqamlar maxalliy xukumatdagilar tomonidan suniy ravishda koʻpaytirilib berilgan.

Kollektivlashtirishga qarshi qaratilgan dehqonlarning norozilik chiqishlari shunchalik kuchli boʻlganki, unga qarshi butun butun qishloqlar qarshilik koʻrsatganlar va xatto qishloq sovetlari dehqonlarni qoʻllab chiqqanlar.

30-yillar boshlarida dehqonlarni kolxozga qarshi chiqishlari va boylarning kollektivlashtirishga qarshi qaratilgan faoliyati keskin kuchayib ketadi va butun Oʻrta Osiyo xududini qamrab oladi .

Birgina, Oʻzbekistonning oʻzida 1930 yilning 1 fevralidan 25 fevraligacha kolxozga qarshi chiqishlar 33 ta boʻlib, ularda 14170 dehqon qatnashgan, 25 fevraldan 17 martgacha esa kolxozga qarshi chiqishda qatnashganlar soni 42743 kishiga yetgandi. ¹ “ Quloqlarga qarshi kurash” niqobi ostida asosan tadbirkor ishbilarmon dehqonlarga nisbatan ommaviy kurash boshlandi oʻziga toʻq tadbirkor xoʻjaliklarning mol-mulklarini musodara qilish va ularni quloq sifatida yashab turgan joylaridan surgun qilish tadbirlari ham qonunsizliklar asosida oʻtkazila boshlandi, xatto qishloq aholisi vakillari dindor boʻlganliklari, maʼmuriyatning xatti xarakatlaridan norozi boʻlgani uchun ,kolxozga kirishni istamagani uchun “ quloq qilish”xollari ham yuz bera boshladi.

¹ Трагедия среднеазиатского кишлака ,коллективизация раскулачивание ссылка ,1929-1955 гг. Документы и материалы том 1.Под редакцией Д.Алимовой.(Сост.Р.Т. Шамсутдинов,Б.М.Расулов) Т.: Шарк, 2006.- стр-62-71.

¹ Шамсутдинов .Р. Коллективлаштириш курбонлари хакида янги маълумотлар// Ватанимиз ўтмишидан. Andijon. Andijon NM,2007.-Б-27-28.

Kollektivlashtirish jarayonidagi bunday adolatsizlik zoʻravonlik siyosati xalq ommasining sovet hukumatidan noroziligini mislsiz darajada kuchayishiga sabab boʻldi, va 1930 yil boshlarida Oʻzbekistonda dehqonlar urushining kelib chiqish xavfini tugʻdirdi. 1930 yil 25 fevralida Fargʻona vodiysining bir qancha rayonlarida mehnatkashlarning ommaviy chiqishlari boʻlib oʻtdi. Bunday harakatlar Andijon okrugining bir qator rayonlarida ham takrorlandi.

Respublikadagi kolhozlariga qarshi ommaviy harakatning inqilobiy chiqishlarining tavsifini oʻsha vaqtdayoq rasmiy doiralar tahlil etishgan. Yoppasiga kollektivlashtirish uchun belgilangan rayonlar avvaldan kollektivlashtirishga tayyorlangan emas. Kollektivlashtirishning belgilangan suratlari rahbariyatning apparatchiligi natijasi joylardan olingan axborotlarga yetarli darajada tanqidiy yondashmaslik kollektivlashtirish rejalarini tuzishdagi idoraparastlik natijasi boʻlgan. Eng asosiy sabab bir tamondan kollektivlashtirish foizini belgilashda haddan tashqari keng koʻlamlilik va kolxozlarning oliy shakliga sakrab oʻtib ketishlar boʻlsa ikkinchi tamondan esa quloqlarni sinf sifatida tugatish shiorini kollektivlashtirishdan ajratib tashlab mustaqil vazifa deb qarash boʻlgan¹

Mahalliy partiya rahbarlarining eng asosiy hatosi kollektivlashtirishning yuqori foizlari ortidan quvib eng ilgʻor rayonlarga yetib olish, ulardan oʻzib ketishga intilish boʻlgan. Bu esa respublika markazining okruglarga kolhoz qurilishi sohasida notoʻgʻri yoʻl-yoʻriqlar berishlarga olib keldi.

Kollektivlashtirishdagi qonunbuzarlik va haddan oshishlar tufayli bir qator okrug va rayonlarda kambagʻal-oʻrta hollar qatlami orasida ham kollektivlashtirishga qarshi salbiy kayfiyat ortib borishi, ommaviy ravishda kolxozlardan chiqib ketish kollektivlashtirishni inkor etish yuz bergan. Andijon okrugida butun bir qishloq, xatto qishloq sovetlari kolxozga kirishdan bosh tortgan.

Kollektivlashtirish va quloq qilishga qarshi Andijon okrugi dehqonlarining 1930 yil fevralidan 12 martgacha boʻlgan davrdagi chiqishlari OGPUning maʼlumotlarida quyidagicha taxlil qilingan:

Andijon okrugi Jalaquduq rayonida 1 mart kuni raykom binosiga 300 kishilik olomon kelib diniy marosimlarni oʻtkazishga ruxsat berishni talab qiladi.

Jalaquduq rayonida 1 mart kuni uchta qishloq kolxozga kirishdan bosh tortdi.

1930 yilning 25 fevralidan 17 martgacha Andijon okrugining rayonlarida qishloq aholisining 36 ta ommaviy norozilik xarakatlari yuz bergan va bu xarakatlarda 9373 kishi ishtirok etgan.

Andijonda ommaviy norozilik xarakatlarining keskin oʻsib borishi bilan bir qatorda respublikaning boshqa okruglarida ham kollektivlashtirishga qarshi shiqishlar yuz bera boshlagan. OGPU ning maʼlumotlariga koʻra respublikada bu davrda 240 marta ommaviy norozilik chiqishlari sodir boʻlgan.¹

1930 yilning 14 martida esa VKP(b) Markaziy Komitetining “kollektivlashtirish harakatida partiya yoʻlini buzishlarga qarshi kurash toʻgʻrisida” qarori eʼlon qilindi. Bu qarorda kollektivlashtirish harakatida “ihtiyoriylik prinsiplari” buzilganligi va ogʻmachiliklar yuz bergani tan olindi. 1930 yilning mart aprel oylarida quloq qilish qisman tugatildi. Barcha rayonlarda qishloq sovetlarda quloq qilingan va huquqlaridan mahrum qilinganlarning roʻyxatini tekshirish boʻyicha komissiyalar tashkil etildi.

Biroq koʻrilgan bu tadbirlarga qaramay zoʻrlilik bilan tashkil qilingan kolxozlar tarqalib keta boshladi. Andijon okrugida 1930 yil 18 martga kelib kolxozlarga kiritilgan 110.9 ming dehqon xoʻjaligidan faqat 28 ming xoʻjalik kolxozlarda qoldi.

1930 yil sentyabr oyida VKP(b)MK barcha oʻlkalar viloyat qomitalari va ittifoqdosh respublikalar kompartiyalari Markaziy Komitetiga kollektivlashtirish toʻgʻrisida maktub

¹ Шамсутдинов Р.Т. Қишлоқ фожеаси. жамоалаштириш, қулоқлаштириш, сургун. -Т.: Шарқ, 2003. -Б-127.

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Китоб 2. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида, -Т.: Шарқ, 2001. -Б-352.

yo'llab unda kolxoz harakatining qudratini yuksaltirishga erishish uchun dehqonlar orasida faol siyosiy va tashkilotchilik ishlarini avj oldirishni tavsiya qildi. Markazning partiyaviy direktivasida kollektivlashtirish suratlarini qayta tiklash qishloq aholisini kolxozlarga xaydab kirish uchun yana sanab ko'rilgan ma'muriy buyruqbozlik usullaridan ham tap tortmastlikka davat etilgan. Bu ko'rsatmalarni bajarish yuzasidan shoshilinch tadbirlar Andijon okrugida ham avj olib ketdi. 1930 yil oktyabr oyida bo'lib o'tgan O'zKP(b) Andijon okrugi komitetining 6 plenumida kambag'al va o'rta hol dehqonlar siyosiy faolligini oshirish kollektivlashtirish xarakatida hal qiluvchi omil ekanligi alohida takidlab o'tildi.

Bu xulosaga ko'ra Andijon okrugida kooperativlarda va kolxozlarda kambag'al-batraklar guruhlari sonini keskin oshirish boshlandi.

Bu tadbirlar o'zining amaliy natijalarini ham bera boshladi. 1930 yilning 27 fevraligacha Andijon okrugi bo'yicha 21928 kishi saylov huquqidan mahrum qilingan bo'lib ulardan 4133 nafari tadbirkorlar, 3415 nafari "quloq"lar va 2543 nafari savdogarlar bo'lgan.

"Quloq" xo'jaliklarini aniqlash va ularni individual shakldagi soliqqa tortish ishlari ham avj oldirildi. Andijon okrugi bo'yicha 1930 yilning aprel oyigacha 2571 xo'jalik "quloq" xo'jaligi sifatida ro'yhatga olingan.

Quloqqa tortish dehqonlar ommasida sovetlar davlatiga nisbatan xavfsirash ishonchsizlikni keltirib chiqarishi tabiiy hol edi. Ko'plab odamlar o'zlarini taqdir hukmiga tashlashga majbur bo'ldilar. Andijon okrugining bir qancha qishloqlarida aholi asbob uskunalarini, mollarini xatto mevali daraxt ko'chatlarini ham sotib yuborib, xo'jalik yuritishdan butunlay voz kechgan.

Quloq xo'jaliklarini tugatishda iqtisodiy usullardan ham keng foydalanildi. Bu usulning mohiyati "quloq" va yakka xo'jaliklarni katta miqdordagi soliqlar bilan tang ahvolga solib qo'yish edi.

Bu davrda dehqonlar soliq, kredit va sug'orish borasidagi imtiyozlarda ham ijtimoiy tabaqalarga ajratilgan. Masalan 1930 yilda qishloq xo'jalik solig'i kambag'al xo'jaliklar uchun bitta xo'jalikka 2 so'm 13 tiyin o'rta hol xo'jalikka 14 so'm 80 tiyin, badavlat xo'jalikka 105 so'm 62 tiyin miqdorida belgilangan.

O'zSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1930 yil 30 oktabrdagi yig'ilishida quloq xo'jaliklari ustidan soliq siyosatini olib borish masalasi muhokama qilinib, bu masalaga doir qarorlar qabul qilindi. Unga ko'ra moliya xalq komissarligiga rayon ijroiya komitetlari bilan xamkorlikda 10 kun ichida alohida soliqqa tortiladigan qishloq xo'jaliklarini hisobga olish vazifasi yuklandi. Quloq xo'jaliklarini aniqlashga doir yangi belgilar kiritildi. Bunga ko'ra 4-5 oy davomida yollanma ishchi kuchidan foydalanganlar, uzluksiz bir oy davomida yollanma mehnatdan foydalanganlar. Mexanik dvigatelli mashinasi bor xo'jaliklar, shuningdek tegirmon moyjuvoz va shunga o'xshash vosita sohiblari quloq sifatida ro'yhatga olinib alohida tartibdagi soliqqa tortildilar. Shular bilan bir qatorda tabiblar, dallollar, dindorlar ham okrug ijroiya komitetining qaroriga ko'ra "quloq" sifatida ro'yhatga olinib, ularga ham alohida soliq majburiyati yuklandi.

1931 yilning 3 fevralidagi ma'lumotga ko'ra respublikadagi 84 ta rayon bo'yicha bu davrga qadar ro'yxatga olingan va qattiq majburiyat yuklangan quloq va badavlat xo'jaliklar soni 39005 tani tashkil qilgan.

Andijon okrugi rayonlari bo'yicha qattiq majburiyatga kiritilgan quloq xo'jaliklari miqdori quyidagichadir.

Andijon rayonidan 1350 ta, Baliqchi rayonidan 242 ta, Oyim rayonidan 284 ta, Jalaquduq rayonidan 384 ta, Izboskan rayonidan 716 ta, Zelenskiy rayonidan 158 ta, Kosonsoy rayonidan 270 ta, Qorg'ontepa rayonidan 280 ta, Marxamat rayonidan 220 ta, Shahrihon rayonidan 133 ta jami Andijon okrugi bo'yicha 5177 ta "quloq" va badavlat xo'jaliklar ro'yhatga olinib ularga alohida soliq majburiyati yuklangan.¹

¹ Абдуллаев М "Андижонда коллективлаштириш ва кулоқ қилиш сиёсатининг ўтказилиш тарихидан"//Андижон тарихидан лавҳалар,-Андижон:Andijon NM, 2006,-Б-237.

1931 yilning bahoriga kelib respublikada yana yoppasiga kollektivlashtirish rayonlarini tashkil etish tajribasi qayta tiklandi. O'zbekistonda ittifoqning g'allakor rayonlarini kollektivlashtirish suratlari bo'yicha "quvib yetish va o'zib ketish" shiori ilgari surildi. Natijada agar 1930 yil iyunda respublikada 6124 ta kolxoz mavjud bo'lib ularga jalb qilinganlar barcha dehqon xo'jaliklarining 27.1 foizini tashkil etgan bo'lsa, yilning oxiriga borib u 37.7 foizga, 1931 yilning mayida 56.7 foizga, dekabr oyiga borib esa 68.2 foizga yetkazildi.

Andijon okrugining Jalaquduq rayonida 1931 yilning 20 avgustida kollektivlashtirish holati quyidagicha bo'lgan Rayondagi barcha dehqon xo'jaliklar 14291 ta kolxozlar soni 223 ta, kolxozdagi xo'jaliklar soni 7675 ta, kollektivlashtirish foizi esa 53.7 foizni tashkil etgan.¹ Kollektivlashtirish ko'rsatkichi bo'yicha Andijon okrugi bo'yicha 10-o'rinda turgan.

Tumanda yer-suv isloxoti ham kollektivlashtirish ham muvaffaqiyatli o'tkazilgan. Tuman oldida turgan tashkiliy ishlarning yana biri Sho'ro jamoalari va kolxozlarni tashkil etish edi.

Shu bois har bir jamoa o'ramida uning katta -kichikligiga qarab bir nechtadan kolxozlar tuzilgan. Masalan Yorqishloq qishloq Kengashi o'ramida Yangiko'rpa qishlog'ining o'zida "Baynalminal", "Bol'shevik", "Karl Marks", nomli Quyuqmozor doirasida "Birlashgan", "Paxtafront", So'fiqishloq Kengashida "Yashasin", Akmal Ikromov nomli "Qizil nishon", "Lochin", "G'ayrat", "Namuna", "Qizil artel", Stalin nomli Qorateginchi qishloq Kengashida "Paxtaobod", "Mexnat", "Qizil ketmon", "Xayot", "Yangi Ustav",

"O'zbekiston", "O'rtoqlar", "Yangiobod", Uchtepa qishloq kengashida "O'zbekiston" va "Sotsializm" kolxozlari tuzilgan¹

Bundan ko'rinish turibdiki Jalaquduq tumanida ham kollektivlashtirish jadal suratlar bilan o'tgan. Respublikada kollektivlashtirish suratlari jadal o'sib bordi 1931-yilning 23-avgustida Andijon rayoni ham yoppasiga kollektivlashtirish rayoni deb e'lon qilindi.

VKP(b) Markaziy Komitetining 1930-yil 30-yanvardagi "Yoppasiga kollektivlashtirish rayonlarida quloq xo'jaliklarini tugatish tadbirlari to'g'risidagi qarorida surgun qilinishi lozim bo'lgan quloq xo'jaliklari uch toifaga ajratilgan edi.

Birinchi toifa- sovetlarga va kolxozlarga qarshi xarakterda faol qatnashgan quloqlar. Ular aksilinqilobchi faol quloqlar sifatida qamoqqa olinishi, oilasi esa mamlakatning boshqa chekkasiga surgun qilinishi lozim edi.

Ikkinchi toifa-yirik quloqlar va yarim pomeschiklar kollektivlashtirish siyosatiga faol qarshi chiqqanlar deb atalgan. Ularning mol-mulki musodara qilinib oilasi bilan boshqa respublikalarga surgun qilinishi ko'zda tutilgan.

Uchinchi toifa- "qolgan barcha quloqlar" bo'lib ularning mol-mulki musodara qilinib tegishli rayonning chekka xududlariga ko'chirilishi lozim edi.

Yuqoridagi qarorda toifalarga ajratilgan quloq xo'jaliklarini surgun qilish tartibi ham ko'rsatib berildi. Bunga ko'ra birinchi toifadagi quloqlarni aniqlash va chora ko'rish ishlari OGPU organlari tomonidan olib borilgan. Ikkinchi toifadagi quloqlar ro'yxati kolxozchilar kambag'al batraklar yig'ilishidan aniqlanib rayon ijroiya komitetlari tomonidan tasdiqlangan. Uchinchi toifadagi quloqlarni ko'chirish va tegishli joylarga joylashtirish tadbirlari esa okrug ijroiya komitetlari tomonidan bajarilgan.

1932 yil 10 aprelda VKP(b) Markaziy Komiteti Siyosiy byurosining mahsus ko'chiriluvchilar komissiyasi majlisida "Quloqlarni surgun qilish xaqida"gi masala ko'rib chiqiladi. Qabul qilingan qarorda 1932 yilda kolxozlardan chiqarilgan va quloq qilingan 30-35 ming xo'jalikni surgun qilish zarurligi takidlangan. Bu qaror bo'yicha ishlar avj oldirilib 1932 yil may oyiga qadar respublikaning 41 ta rayonidan 4477 ta quloq xo'jaliklari mavjudligi ulardan 1047 nafari mehnatga yaroqli erkaklar ekani maxsus mahfiy malumotda bildirilgan.

2 Трагедия среднеазиатского кишлака ,коллективизация, раскулачивание ссылка ,1929-1955 гг Документы и материалы том 1 Под редакцией Д. Алимовой (сост Р.Т. Шамсутдинов Б.М. Расулов)Т.:Шарк, 2006,- стр 278

¹ Хайитохунов Ш.Абдуллаев П. Истиклол уйғотган диёр, Жалакудук , - Андижон, 1996,-Б-24.

Aniqlangan “quloq” xo‘jaliklaridan Andijon okrugi rayonlari bo‘yicha miqdori quyidagicha; Qo‘rg‘ontepa tumanidan 122, Asaka rayonidan 228, Oyim rayonidan 53 ta Jalaquduq rayonidan 56 ta quloq xo‘jaligi aniqlangan.¹

1932 yilning 28 mayigacha bo‘lgan davrda Andijon tezkor sektoridan Andijon okrugining 10 ta rayoni bo‘yicha jami 1294ta xo‘jalik surgun qilingan .Ushbu xo‘jaliklar 5484 kishini tashkil qilib ulardan 1810tasi erkaklar, 1387 tasi ayollar, 2287 tasi bolalar bo‘lgan .

Ushbu ko‘rsatgich Jalaquduq rayonida quyidagicha bo‘lgan . Tumanda jami 107 xo‘jalik yani 416 kishi surgun qilinib ulardan 144 tasi erkaklar, 101 tasi ayollarni va 171 tasi bolalarni tashkil etgan.1931-1932yillar mobaynida Andijon okrugi rayonlaridan jami 2259 “quloq” xo‘jaligi yani 9664 jon respublikadan tashqariga-Ukraina, Shimoliy Kavkaz va Shimoliy Qozog‘istonga surgun qilingan. Bu davrda Andijon okrugida jami 140733ta dehqon xo‘jaliklari bo‘lib respublikadan tashqariga surgun qilingan . “Quloq ” xo‘jaliklari ularning 1.6% tashkil qiladi. Quloqlarni ma‘lum bir qismi esa respublikaning o‘zida, uning chekka, cho‘l xududlarida tashkil qilingan maxsus mexnat posyolkalariga ko‘chirib yuborildi. Andijon okrugi xududida ana shunday mehnat posyolkalaridan 3 tasi tashkil qilingan bo‘lib ular Qo‘rg‘ontepa rayonining “Savay” sovxozida, Norin rayonida va Izboskan rayonida edi. Bu mehnat posyolkalari ichki ishlar organlari hisobidagi tartib bo‘yicha 7 sonli Savay, 8 sonli Norin, 9 sonli Quybishev mehnat posyolkalari deb yuritilgan.

O‘zbekistonda “quloq” qilish ularni respublika bo‘ylab va boshqa o‘lkalarga surgun qilish ishlari yoppasiga kollektivlashtirish yakunlangandan keyin ham davom etdi. Bu mudhish tadbir 1937 yilga qadar bosqichma-bosqich amalga oshirilgan.

Kollektivlashtirish siyosatini o‘tkazuvchilar ham kolxozlarga kirayotgan dehqonlar ham hech qanday instruksiyaga ega emas edi. Kolxozchilarga mehnat umumiy tarzda tashkil etilar, ish haqi ham bir hil, tekis taqsim qilinardi. Mahalliy rahbarlar esa o‘zlariga ma‘qul bo‘lmagan va huquqi, erki uchun kurashgan, bir qator shahslarni o‘zicha quloqlar ro‘yhatiga kiritishgan.

Chorvador ho‘jaliklarda 10 kun ichida chorva mollarini kolxozlarga topshirish majbur qilib qo‘yilgan. O‘z ixtiyori bilan molini topshirmaganlar qiynoqqa solinar, bor yo‘g‘i tortib olinardi. Ularga hunarmandchilik, dehqonchilik, savdo-sotiq bilan shug‘ullanish taqiqlab qo‘yilgandi. Chorva mollarini kolxozga berishni istamaganlar ularni so‘yib yo‘qotdi. Natijada butun mamlakatda 1928-1933-yillarda qora molar 60.1mln dan 33.5 mln ga, qo‘y-echkilar 97.3mln dan 32.9 mln ga yilqilar 32.1 mln dan 14.9 mln ga kamayib ketdi.Qishloq xalqi yarim och hayot kechirardi. Respublikada 1928-1932-yillarda salkam 715 ming qoramol, 160 ming ot 49 ming tuya, 123 ming eshak va hachir bir necha yuz ming qo‘y yo‘qotildi.¹

Umuman O‘zbekistonda amalga oshirilgan yoppasiga kollektivlashtirish va “quloq” qilish siyosati zo‘ravonlikka, qatag‘onchilikka asoslangan mudhish tadbir bo‘lib u qishloq aholisiga cheksiz kulfat, g‘am alam va qayg‘u keltirdi. Surgun qilish esa nisbatan uzoq davom etdi. Bu davr mobaynida qishloqning eng tadbirkor, mehnatsevar, ishbilarmon qatlami batamom yo‘q qilib yuborildi.

Bu xo‘jaliklarning ixtiyoridagi butun mol-mulki musodara qilinib, ularni oila a‘zolari bilan uzoq chekka o‘lkalarga surgun qilib yuborildi. Uning fojeali oqibati shu bo‘ldiki minglab, yuz minglab odamlarning qirilib ketishi, milliy qishlog‘imizning qashshoqlashuvi qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning inqirozga yuz tutishi sodir bo‘ldi.

¹Шамсутдинов. Р.Т. Қишлоқ фожеси:жамоалаштириш,қулоқлаштириш, сургун,-Т.:Шарқ,2003,-Б- 243-244

¹ Ҳайитов Ш. Қишлоқ хўжалигини коллективлаштириш жараёнида ўзбек муҳожирлигининг вужудга келиши //Ўзбекистон тарихи .- Т.:Фан,- 2008,сон,-Б-45-46.

1931-1932 yillarda O‘zbekistonda “Quloq” etilganlar to‘g‘risidagi jadval

	Rayon tezkor sektorlari	Rayondagi barcha dehqon xo‘jalik lari soni	Surgun qilingan 1931 yilda	Surgun qilingan 1932 yilda	Xo‘jaliklar	Dehqon xo‘jalik-larining umumiy soniga nisbatan surgun qilingan lar foizi	Rayonda jamoalash-tirishning foizi
	Jalaquduq	14697	-	107	107	0,7 ¹	52,2

**O‘ZBEKISTON RAYONLARIDAN SURGUN QILINGANLAR TO‘G‘RISIDA
(1932yil 28 maygacha bo‘lgan holat)**

	Rayonlar	Quloqlar jo‘natiladigan stansiyalar	Eshelonda yuklanib jo‘natilganlar				
			Xo‘jaliklar	Jon	Erkaklar	Ayollar	Bolalar
	Jalaquduq	Guruchmazor	107	416	144	101	171 ¹

¹ Шамсутдинов Р.Т. Қишлоқ фожеаси:жамоалаштириш, қулоқлаштириш,сургунб-Т.:Шарқ,2003,-Б-306.

¹ Шамсутдинов Р.Т. Қишлоқ фожеаси:жамоалаштириш,қулоқлаштириш,сургун,-Т.:Шарқ,2003,-Б-301.

2. “Katta terror” qurbonlarining xayot yo‘li va taqdiri.

Tariximizning ayanchli xasratli, fojiali, saxifalardan biri sovetlarning O‘zbekistonda olib brogan qatag‘on siyosati va uning fojeali oqibatlaridir. Mudhish oktabr to‘ntarishidan boshlab to SSSR parchalanib ketgunga qadar siyosiy qatag‘on sovet jamiyatining ajralmas tarkibi qismi bo‘lib keldi. Biroq bu fojea vatanimiz tarixida ayniqsa 30-40 yillardagi tariximizda mutloqo yoritilmagan edi. Bu davr bamisoli ustiga kafan tashlangan, kafanga o‘ralgandek xolatda, o‘rganish uchun yopiq mavzu bo‘lib qolgan edi.

Yurtboshimiz I.A. Karimov xali mustaqilikka erishmasdan avvalroq O‘zbekistondagi siyosiy qatag‘on va uning qanday kechgani fojeali oqibatini ochib berish begunoh qatag‘on qurbonlarini oqlash choralari ko‘rish tashabbusi bilan chiqdi.

Bu o‘rinda yurtboshimizning mana bu fikrlari diqqatga loyiqdir ”1937-1939yillarda ichki ishlar xalq komissarligi idoralari inqilobiy qonunchilikni juda qo‘pol tarzda buzdilar va oyoq osti qildilar. Bunday bedodlik keyingi yillarda ham, to 50-yillarga qadar davom etdi. Sira aybi bo‘lmagan halol odamlar ko‘plab qamoqqa olindi va qirib tashlandi”.

Stalin shaxsiga sig‘inish yillari O‘zbekiston xalqlari boshiga og‘ir kulfatlar soldi. 1937-1938 yilarning o‘zidagina O‘zbekiston SSR ichki ishlar xalq komissarligining “uchlik” lari tomonidan 41000 nafardan ko‘proq kishi qamaldi .Shulardan 37000 nafardan ko‘prog‘i sudlandi, 6 ming 920 kishi otib tashlandi. Asossiz qamalib jinoiy javobgarlikka tortilgan kishilar orasida partiya sovet xo‘jalik xodimlari, xarbiylar, ziyolilar va kolxozchilar juda ko‘p edi.

“Repressiya” lotincha so‘z bo‘lib bosim, tazyiq ma‘nosini anglatadi. Bu so‘zning o‘zbekcha ma‘nosi qatag‘on tushunchasiga to‘g‘ri keladi. “Repressiya” qatag‘on partiya va davlat organlari qo‘llaydigan jazo chorasidir. Qatag‘on mustabid totalitar mustamlakachi davlat tomonidan xalqqa nisbatan qo‘llaniladigan jazolash qatliom ommaviy tarzda zulm o‘tkazish tushunchalarini o‘zida mujassam etadi. Qatag‘on ommaviy jazolash qiynoqqa solish choralari mustabid davlatlarining xalqni asoratda tutqunlikda ushlab turish qo‘rqitish bosim tazyiq o‘tkazish qurolidir.¹

Bu qatag‘on siyosati chor xukumati Turkistonda keng ko‘lamda olib borgan. Ayniqsa sobiq sovetlar saltanatida bu mudxish qatag‘on siyosati va amaliyoti keng va uzoq vaqt davomida qo‘llanildi.

Qatag‘on butun sobiq Ittifoq xalqlari qatori Turkiston, O‘zbekiston xalqi boshiga ham misilsiz og‘ir kulfatlar yog‘dirdi .Jadidchilikni, Turkiston muhtoriyatini “bosmachilik ” deb atalmish milliy harakatni bostirishda yer suv isloxotini o‘tkazish kollektivlashtirish davrida qatag‘on siyosati katta ko‘lamda qo‘llanildi. “O‘nglar” ga “Milliy ittixodchilar”ga “O‘n sakkizlar”ga qarshi kurash niqoblari ostida O‘zbekistonda axolining turli qatlamlariga milliy arboblar, xodimlarga qarshi qatag‘on qo‘llanildi.

Qatag‘onning eng yuqori bosqichga ko‘tarilgan 1937-1938 yillardagi “Katta terror ” kompaniyasida ham O‘zbekistondan minglab odamlar qatag‘on qilichidan o‘tkazildi, konslagerlariga tashlandi. 1937-1938yillardagi “Katta terror,” “buyuk terror” davrida bir yildan ko‘proq vaqt davomida “sobiq quloqlarga, jinoyatchilarga va boshqa antisovet elementlarini repressiya qilish ” hamda “aksilinqilobiy milliy kontingent” ga qarshi repressiya operatsiyalarini o‘tkazish sovet xukumati siyosatining, asosiy yo‘nalishi bo‘lib qoldi.

SSSR Ichki ishlar xalq komissari “temir narkom” nomini olgan Nikolay Yejev tomonidan 1937 yil 30 iyuldagi “sobiq quloqlar jinoyatchilar va boshqa antisovet elementlarini qatag‘on qilish bo‘yicha operatsiya to‘g‘risida”gi 00447 sonli operativ mutlaqo maxfiy tamg‘a ostidagi buyruq qabul qilindi.

Bu maxfiy buyruqqa muvofiq 1937 yil 10-avgustdan 1938 yil 1-yanvargacha bo‘lgan vaqtda O‘zbekiston bo‘yicha jami 10700 kishi qamoqqa olingan, ulardan 3613 kishi 1-toifa bo‘yicha otuvga, 7087kishi 2- toifa bo‘yicha 8-10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan.² 1937yil Avgustdan 1938yil Noyabrga qadar o‘sha mudhish 1937 yil30-iyuldagi 00447-buyruq bo‘yicha

¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси 7жилд. Т. :Давлат илмий нашриёти,-2004,-Б- 312-313.

² Шамсутдинов Р.Т.Қатағон қурбонлари.1937йил 10-август-5 –ноябр,2-китоб,-Т.:Шарқ,2007,-Б-3.

767397 kishi, “milliy kontingentga qarshi kurash” buyrug‘i bo‘yicha 34671 kishi, jami 1114110 kishi qamoqqa olingan. Shundan 1102910 kishi ustidan xukm chiqarilgan Ulardan 633955 kishi otuvga, 485626 kishi GULAG lagerlari, mexnat tuzatuv lagerlari, koloniyalarida 8 yil, 10 yil qamoq jazosini o‘tashga xukm qilingan.

Butun 1937 -1938 yillar bo‘yicha ichki ishlar xalq komissarligi organlari tomonidan 1375259 kishi qamoqqa olingan, 1344923 kishi ustidan xukm chiqarilgan. Shundan 681692 kishi otuvga, 634820 kishi lager yoki turma qamog‘iga xukm etilgan. Xullas, bu davrda siyosiy jinoyatchilarning 91.7 % otilgan.

1937 yilgi terror kompaniyasi “katta terror” maqomini oldi, “katta terror” 1937-yilning ramzi bo‘lib qoldi. Aslida bu “katta terror” odamlarni katta miqdorda, ommaviy yo‘q qilishning o‘zginasi edi. 1937 yilga qadar otuv miqdori unchalik katta bo‘lmagan. Masalan, quloqqa tortishning birinchi yili 1930 yilda 20001 quloq, 1935 yilda 1223 quloq 1936 yilda 1118 quloq qatl etilgan .

1937 yil avgustida boshlangan “katta terror” o‘sha yilning dekabrda o‘zining yuqori bosqichiga ko‘tarilgan. Sabab shuki, mahalliy raxbarlar operatsiyani tugallash arafasida rejani bajarishga mukkasidan ketib chiranib, shoshib ish ko‘rganlar. O‘sha yili 353074 kishi qatl qilingan. 1938 yil ham o‘zidan mudhish iz qoldirgan. O‘sha yilda 328618 kishi qatl qilingan.¹

Buyruqda antisovet uyushmalarini tergov qilish materiallarida muqaddam qatag‘on qilingan, qatag‘on bo‘lishdan yashirinib yurgan lagerlardan surgundan va mehnat posyolkalaridan qochib kelgan sobiq quloqlarning katta qismi qishloqlarda o‘rnashib qolganligi qayd etilgan. Shuningdek cherkovchilar, sektachilar, iyosiy artiyalar, eserlar, dashnoqlar, musavatchilar, ittixodchilar, banditlar, o‘zg‘alonlarning sobiq faol ishtirokchilari oq jazochilar, turli jinoyatchilar, talonchilar jazoni o‘tab qamoqdan qochib kelib, qatag‘on bo‘lishdan yashirinib yurganlar ham qishloq va shaxarlarda in qurib olganliklari buyruqda takidlangan.

Aytilganlardan kelib chiqib davlat xavfsizlik organlari oldida ana shu antisovet elementlarni xech ayamasdan, tugatish mehnatkashlarni, sovet xalqini ularning aksilinqilobiy xurujlaridan ximoya qilish va ularni Sovet davlati asosiga negiziga qarshi qilgan qo‘poruvchiligini tag tugi bilan abadul abad yo‘q qilish vazifalari o‘sha buyruqda ko‘rsatilgan.

Buyruqda operatsiyani 1937 yil 5-avgustdan boshlab to‘rt oy muddatda yakunlash kerakligi ko‘rsatilgan .O‘rta Osiyo respublikalarida operatsiya 1937 yil 10-avgustdan boshlanadigan bo‘ldi .

Buyruq bilan respublikalar o‘lkalar va viloyatlar “ uchlik”lar tarkibi ham tasdiqlangan. Respublika ichki ishlar organlari xuzuridagi “uchlik tarkibi”bevosita Markaz tomonidan tanlangan va tasdiqlangan.

1938 yilda O‘zbekistondagi uchlik xayati O‘zbekiston SSR ichki ishlar xalq komissari D.Apresyan (rais) O‘zbekiston Kompartiyasi markaziy komiteti birinchi kotibi, Usmon Yusupov(azo) davlat xavfsizlik komiteti leytenanti, 8-bo‘lim bo‘shlig‘ Boronenko (kotib), O‘zbekiston SSR prokurori Sheyndlin (azo) dan iborat edi ¹.

“Uchlik” kun-kunora yig‘lish o‘tkazib turgan .Birgina fevral oyining o‘zida 21 marta yig‘ilib 2 ming 500 nafarga yaqin kishi ustidan xukm chiqargan .Ishi ko‘rilganlardan salkam 90foizi otuvga xukm etilgani “uchlik “faoliyati naqadar beshavqat tus olganini korsatadi.

1937 yil 10-avgustdan “ Uchlik “ yig‘lishlari boshlangan .Shu 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha jami 10700 kishi qamoqqa olingan .Shundan 24 kishi sobiq quloqlar ,1679 jinoyatchilar 3097 kishi “sovetlarga qarshi unsurlar” sifatida qatag‘on qilingan .

Hukurga tortshi jiilganlar hududlar bo‘yicha taqsimlaganda ularning asosiy qismi Horazm 752 nafar Andijon 296 nafar Buhoro 188 nafar hamda Qoraqolpog‘iston muxtor Respublikasiga 154 nafar, shuningdek Namangan 320 nafar va Qo‘qon 102 nafar shaharlarga to‘g‘ri kelishi ma’lum bo‘ldi.

1 Шамсутдинов.Р. Дўсмагов.Е. Қатағон қилинган Самарқандликлар//Илмий хабарнома.2008.1-2 сон-Б-43.

¹ Шамсутдинов Р.Т. Қурбонов Х. Учлик ҳайъати мудҳиш мужодала //Тафаккур.2009.4-сон.Б-86-87 .

Otuvga hukm qilinganlarning 1376 nafari sobiq quloqlar 952 nafari jinoyatchilar va 1285 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo'lgan. 8-10 yilga hukm qilinganlarning 4548 nafari sobiq quloqlar 727 nafari jinoyatchilar 1812 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo'lgan.

Katta miqdordagi qatag'on qurbonlaridan, yani 10700 kishidan 8338 nafari nomma nom aniqlandi, va ular xaqidagi asosiy ma'lumotlar e'lon qilindi, Ulardan 2358 nafari otilgani 5903 nafari 10-8 yil qamoq jazosiga tortilgani, 77 nafari ozod etilgani malum bo'ldi.

Qatag'on mashinasini to'xtatish ogi'ir kechdi, uni 4 oy muddatda tugatish mumkin bo'lmadi. 1938 yilda ham davom etdi va uch bosqichda olib borildi.

Birinchi bosqichni 1938 yilning fevrali bilan belgilash mumkin . VKP(b) Markaziy Komiteti 1938 yil 31 yanvarda " SSSR NKVD ning 1937 yil 30 iyuldagi buyrug'i bo'yicha repressiya qilish uchun qo'shimcha limitlarni tasdiqlash to'g'risida" qaror qabul qildi. Uni markaziy komitet bosh kotibi I Stalin imzolab viloyatlar o'lkalar partiya komitetlariga milliy kompartiyalar Markaziy Komitetlariga yo'lladi Qaror bilan SSSR NKVD ning repressiya qilinadigan sobiq quloqlar jinoyatchilar va faol antisovet elementlarni repressiya qilish uchun qo'shimcha limiti miqdori ham ko'rsatilgan.

19 ta mintqa bo'yicha repressiya qilinadiganlar miqdori ham belgilanib qo'yildi. O'zbekiston bo'yicha 2 ming kishi 1 -kategoriya bo'yicha otuvga 500 kishi 2-kategoriya bo'yicha yani 10-8 yil qamoq jazosiga repressiya qilinishi ko'zda tutilgandi. Repressiyani o'tkazish 1938 yil 15 martgacha tugallanishi ko'rsatilgandi.

Ma'lumki N I Yejoyning 1937 yil 11 dekabrda telegrammasida "Quloqlar operatsiyasi" bo'yicha faoliyatda bo'lgan "Uchlik"lar o'z ishlarini 1938 yil 1-yanvargacha tugallashi , mahalliy ichki ishlar organlari operatsiya bo'yicha yakunlangan xisobotlarni topshirishlari kerak edi .VKP(b)Markaziy Komitetining 1938 yil 31 yanvardagi qarori bilan o'sha avvalgi "Uchlik" lar faoliyati muddati uzaytirildi. Barcha o'lkalar ishni 1938 yil 15 – fevralgacha tugallashi belgilab qo'yildi.

Shu bois O'zbekistonda faoliyatda bo'lgan "Uchlik "ham o'z ishini davom ettirdi.

Bu davrda "Uchlik "1938 yil 4-fevralda 2ta, 7-fevralda 2ta, 9-fevralda 2 ta, 10 fevralda 3 ta ,13 fevralda 3 ta ,14 fevralda 1ta, 16 fevralda 5ta, 17 fevralda 3ta, jami 21 ta yig'lish o'tkazilgan. Bu yig'ilishlarda 2491ta maxbus ustidan xukm chiqarilgan ulardan 2086 mahbus otuvga 398 maxbus 10 yil muddatga, 2 maxbus 8 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga qamoqqa hukm etildi 4 maxbus tergov vaqtida vafot etgan, 1 maxbus ozod qilingan.

Kuniga o'rtacha 310-315 kishi ustidan hukm chiqarilgan. Masalan 10-fevraldagi yig'ilishda 472 maxbus, 16-fevraldagi yig'ilishda 553 ta maxbus ustidan xukm chiqarilgan. Xukm chiqarishda xatto ayrim mahbuslarning o'zlari ishtirok etmagan "Uchlik "joylardagi operativ sektorlar taqdim qilgan ayblov xulosalariga asoslanib xukm chiqargan.

Qatag'on qilinganlarning ijtimoiy tarkibida sobiq quloqlar 1771 kishi (71 foiz) ishchi xizmatchilar 583 kishi dindorlar ,ruhoniylar imom va eshonlar 153 kishi ,sobiq savdogarlar 72 kishi xibsga olinganda mashg'uloti aniq bo'lmaganlar 792 kishi edi. Milliy tarkibida esa o'zbeklar 1947 kishini qoraqalpoqlar 142 kishini tashkil qilgan 402 kishi esa rus va boshqa millat vakillari bo'lgan. Bir qancha bayonnomalarda maxbuslarning millati ko'rsatilmagan. Bunday xolatda maxbuslarning yashash joyi manzili kasbi ismi va sharifini bilish orqali qaysi millatga mansubligini tasmollab aniqlash mumkin bo'lgan.

1938 yildagi qatag'onlarning ikkinchi bosqichi o'sha yil sentyabrdan boshlangan. VKP(b) Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi 1938 yil 9-sentyabrda SSSR Ichki ishlar xalq komisarining o'rinbosari L P Beriyaga 1-rang Davlat xavfsizligi komissari degan unvon berishga qaror qiladi. 13 –sentyabrda esa Siyosiy byuro N I Yejoyning xatini ilova qilib SSSR Ichki ishlar xalq komissarligining tashkiliy strukturasidagi o'zgarishlar to'g'risida qaror qabul qildi.

Ichki ishlar xalq komissarligi tizimida birinchi bosh boshqarma Davlat xavfsizligi, ikkinchi bosh boshqarma–iqtisodiy uchinchi bosh boshqarma-transport bo'ldi.

O'sha yili 23 sentyabrda Siyosiy byuro SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi strukturasi to'g'risida qaror qabul qiladi. Unda 1938 yil 19-sentyabrdagi qarorga o'zgartirishlar kiritadi. Davlat xavfsizligi Bosh boshqarmasi tarkibi davlat xavfsizligi, iqtisodiy transport, chegara va ichki qo'shinlar, ishchi-dehqon militsiyasi, mehnat tuzatuv lagerlari va mehnat qishloqlari, ma'muriy xo'jalik uzoq sharqdagi qurulish bo'yicha boshqarmalar va boshqalardan iborat bo'ladi. Davlat xavfsizligi Bosh boshqarmasi boshlig'i etib L.P.Beriya, uning o'rinbosari qilib V.N.Merqulov tasdiqlanadi.

VKP(b) Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi 1938 yil 15 sentyabrda NKVD to'g'risidagi masala yuzasidan qaror qabul qildi. Ichki ishlar xalq komissarligining 1967 yildagi 00439 hamda 00485 va 1938 yildagi 302 va 326 sonli buyruqlari bo'yicha qamoqqa olingan, aksilinqilobiy milliy kontingentlar bo'yicha ko'rilmay qolgan tergov ishlarini joylardagi mahsus "Uchlik"larga berish haqidagi taklifini maqulladi. Maxsus "Uchlik"lar oblastlar o'lkalar va milliy kompartiyalar markaziy komitetlari birinchi kotiblari, NKVD rahbarlari va prokurorlar tarkibida tuzilishi ko'rsatildi. Bu "Uchlik"lar 1938 yil 1-avgustgacha qamoqqa olinganlar ishini ko'rib chiqishi va bu ishni 2 oy muddatda tugallashi talab qilindi.

1938 yil 1-avgustdan keyin qamoqqa olinganlar milliy kontingent shaxslar ishlarini tegishli organlarga, shuningdek SSSR Ichki ishlar xuzuridagi maxsus kengashlarga ko'rib chiqishi uchun yuboriladigan bo'lgan. Bu maxsus "uchlik"larga SSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1937 yil 25 avgustdagi 00485-sonli buyrug'i asosida birinchi kategoriya va ikkinchi kategoriya bo'yicha xukm chiqarish huquqi berigan. Agar ayblanuvchining ishida yetarli ayblov materiallari bo'lmasa bunday shaxslarni qamoqdan ozod qilish xaqida qaror qilinishi ko'rsatilgan. Maxsus "Uchlik"larning birinchi kategoriya bo'yicha zudlik bilan ijro etilishi aytilgan.

Siyosiy byuroning 1938 yil 17-sentyabrdagi qarorini rivojlantirish uchun SSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 00606 sonli maxsus "Uchlik"lar ishi tartibi to'g'risida buyrug'i qabul qilinadi va unda jazo siyosatini yumshatishga qaratilgan quyidagi tadbirlar ilgari suriladi:

Birinchidan, xorijliklarni qamoqqa olish bilan bog'liq bolgan turli qiyinchiliklarni etiborga olib "Maxsus uchlik"lar xorijlik fuqorolarga qo'zg'atilgan ishlarni ko'rmasligi qayd qilingan.

Ikkinchidan "Maxsus uchlik"lar xukm chiqarganlarida 1937 yil 25 avgustdagi buyruq asosida birinchi va ikkinchi kategoriyalar bo'yicha ish ko'rsalarda unga qo'shimcha yangilik tarzida bu "Maxsus uchlik"lar ishini to'laroq tekshirish uchun qaytarib yuborishi va ayblanuvchini, agar jazo beruvchida yetarli ma'lumotlar bo'lmasa, qamoqdan ozod qilish haqida qaror chiqarish imkoniga ega bo'ldi.

SSSR NKVD ning 1938 yil 17-sentyabrdagi 00606-sonli operativ buyrug'iga muvofiq O'zbekiston bo'yicha Respublika ichki ishlar xalq komissari raisligida O'zbekiston kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi Respublika prokurorlaridan iborat "Uchlik" tuzilgan. Uning kotibi qilib Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi inspektor, davlat xavfsizlik leytenantlari tayinlangan. Bu "Uchlik" bor yo'g'i ikki kun, yani, 21-22 sentyabr kunlarida yig'ilish o'tkazib 11 ta bayonnoma imzolagan.

Bayonnomalarda 475 mahbus ishlari ko'rib chiqilgani qayd etilgan. Ulardan 98 kishi oliy jazoga, 245 kishi 10-yilga, 21 nafar maxbusning ishi qayta ko'rib chiqish uchun, 31 kishi 8 yilga, 76 kishi 5 yilga qamoq jazosiga xukm qilingan, 4 nafar mahbus ozod qilingan.

Qatag'on qilingan bu maxbuslardan 195 kishi eroniy, 59 kishi uyg'ur, 43 kishi o'zbek, 41 kishi nemis, 18 kishi polyak, 13 kishi afg'on, 12 kishi rus, 11 kishi tojik, 10 kishi venger, 8 kishi fors, 8 kishi arman, 6 kishi turk, 5 kishi latish, 5 kishi koreys 5 kishi dungan, 58 kishi qirg'iz, 4 kishi tatar, 3 kishi turkman, 3 kishi belorus, 2 kishi arab, 2 kishi hind, 2 kishi bolgar, 1 kishi qoraqalpoq, 1 kishi ukrain, 1 kishi grek, 1 kishi xitoy millatlariga mansub bo'lgan 29 millat vakillaridan iborat edi.

1938 yil sentyabrda O'zbekistondan qatag'on qilinganlarning qariyb 91% boshqa millat vakillaridan iborat bo'lgan. 9%ni esa o'zbeklar tashkil qilgan. Ana shu katta foizni tashkil

etgan chet elliklar xorijdan kelib respublikada o'rtnashib qolgan turli hizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan josuslikda, razvedkachilikda kabi ayblar bilan qamoqqa olingan. Bundan tashqari, respublikaning tub fuqorolari sobiq quloq, sobiq bosmachi, ruhoniyning farzandi, aksilinqilobiy guruxlar a'zosi amir amaldori, boy savdogar, muqaddam sudlangan, qamalgan surgunda bo'lgan aholi va jamiyat xayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalari bo'yicha malumotlar yig'ib, sovet hukumatiga qarshi terrorchilik g'oyaviy fashistik, antisovet, antikolxoz, aksilinqilobiy tashviqot olib borgan hududlardagi xarbiy kuchlar, harbiy qismlar organlar haqida axborot yig'ib chetga uzatgan.

Muxojirlik ruxdagi tashviqot olib borib aholini Afg'onistonga, Eronga, Xitoyga, Tojikistonga va boshqa joylarga ko'chib o'tishga davat qilgan yolg'on uydirmalar to'qib aholining fikrini o'zgartirishga harakat qilgan degan ayblar bilan qatag'on qilingan. Chet elliklarning 88-90% turli ayniqsa aholi ko'p ishlaydigan joylarda zavod, fabrika, artellar kolhozlar xarbiy qismlar nonvoyhonalar, sartaroshxonalar, tuman moliya bo'limi, qishloq matbuot jamiyati, choyhonalar, paxta zavodlari magazin va do'konlarda savdogarlar sifatida faoliyat ko'rsatib ma'lumot to'plash va aholi o'rtasida targ'ibotni olib borganlikda ayblanganlar. Xorijliklarning ma'lum qismi oliy ma'lumotli bo'lgan, ular oliy o'quv yurtlarida, maktablarda chet tilidan o'qtuvchi, xo'jalik ishlarida ishchi, tarjimon va boshqa vazifalarda ham ishlagan. Bunday ayblar bilan aybdor deb topilganlarning 20% otuvga, 75 % 10, 8, 5 yilga qamoq jazosiga hukm qilingan 21 kishining ishi qayta ko'rib chiqish uchun xarbiy tribunalga yuborilgan 4 kishi aybsiz deb topilgan, qamoqdan ozod etilgan.

Bor yo'g'i 10 kun ichida "Uchlik" deyarli 3000 kishi ustidan Toshkentdan va viloyatlardan keltirilgan ayblov xulosalarigagina asoslanib tezkorlik va shoshma-shosharlik bilan hukm chiqargan. 1938 yildagi "Katta terror", "Quloqlar operatsiyasi" ning navbatdagi 3 bosqichi o'sha yilning oktabr, noyabr oylariga to'g'ri keladi. Bu davrda qatag'on qilinganlar ishlari SSSR oliy sudi xarbiy kollegiyalarining sayyor yig'ilishlarda ko'rib chiqilgan. 1936 yil 1- oktabrdan 1938 yil 1- noyabrga qadar SSSR oliy sudi xarbiy kollegiyasi 36906 kishi ustidan xukm chiqargan. Shundan 25355 kishi otuvga, 1059kishi 15 25 yil muddatga, 3598 kishi 10 yil muddatga 123 kishi 5 yil muddatga 61 kishi 3yil muddatga qamoq jazosiga, 2 kishi SSSRning ichkarasiga surgun qilishga, 20 kishi boshqa jazo choralari ko'rishga 30 kishini ozod qilishga, 1188 kishining ishini qayta tergov qilish uchun qaytarib yuborishga xukm qilingan.

Xukmga tortilganlarning bir qismi O'zbekistonda edi. 1938 yili oktiyabr boshlarida Toshkentda SSSR oliy sudi xarbiy kollegiyasi sayyor yig'ilishlari bo'lib o'tadi. Ko'plab partiya davlat, jamoat arboblari ayniqsa ziyolilar, adiblar, fan va oliy o'quv yurtlari xodimlari taniqli kishilarning ma'lum vakillari otuvga, 8-10 yilga qamoq jazosiga xukm qilingan.

Oliy jazoga xukm etilganlar o'sha xukm e'lon qilingan kunning o'zidayoq otib tashlangan. Ular orasida o'zbek xalqining asl farzandlari Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Raxim Inog'omov, Usmonxon Eshonxo'jaev va boshqalar bo'lgan. SSSR oliy sudi xarbiy kollegiyasining Toshkentdagi yig'ilishlari bayonnomalari O'zbekiston xududidagi davlat va tegishli arxivlarda, ham yo'qligi ma'lum bo'ldi.

1938 yili 28-martda siyosiy byuro a'zolaridan I V Stalin, V M Molotov, L M Kagonovich, A.A.Jdanov, K.E.Vorashilovlar O'zbekistondagi elita vakillaridan 165 nafari qatag'on qilinishi mumkin bo'lgan ro'yxatni imzolaydi. Ro'yxat bo'yicha 1938 yili 4-7 oktabr kunlarida Toshkentda SSSR oliy sudi xarbiy kollegiyasining sayyor yig'ilishi bo'lib 155 kishi otuvga, 10 kishi Mexnat tuzatuv lageri qamog'iga xukm qilinganligi qayd etilgan. SSSR xalq komissarlari soveti raisi V. Molotov VKP (b) markaziy komiteti kotibi I Stalin imzosi bilan 1938 yil 17- noyabrda "Prokuror nazorati va tergov olib borishda qamoqqa olishlar to'g'risida" gi xukumat va partiya qo'shma qarorini ichki ishlar, prokurorlar, partiya kotiblariga yubordilar.

1937-1938 yillarda partiya raxbarligida NKVD organlari xalq dushmanlarini tor-mor qilishda va SSSRni trotskiychilar, buxarinchilar, eserlar, mensheviklar, burjua millatchilar,

oq gvardiyachilar, qochoq quloqlar va jinoyatchilardan chiqqan ayniqsa Yaponiya, Germaniya, Polsha, Angliya va Fransiya razvetkasi uchun jiddiy tayanch bo'lgan ko'psonli josus terrorchi diversantlar va zararkunanda xodimlardan tozalashda katta ish olib borganlari qarorda qayd qilinadi. "Katta terror" vaqtida O'zbekiston xududidan tashqari joylarda taqdir taqozosi bilan yashab tirikchilik qilayotgan, xususan GULAG va mehnat tuzatuv lagerlari, koloniyalardagi maxbuslar Ukraina, Shimoliy Kavkaz o'lkasi, Qozog'istondagi mehnat maxsus posyolkalarida surgun azobini tortayotgan "sobiq quloqlar" ham takroran qatag'on qilingan edi. Ularni ham aniqlab xisoblaydigan bo'lsak O'zbekistonliklardan mudhish "Katta terror" qurbonlari miqdori yanada ko'payadi. Masalan 1931 yili O'zbekistondan Ukrainaning Xerson viloyatiga surgun qilingan yurtdoshlarimizdan sobiq quloqlardan Goloprstan, Kaxovskiy va Skadovskiy tumanlari bo'yicha 200 ga yaqin mehnat ko'chkindilari ayni ana shu katta terror vaqtida qatag'on qilingani aniqlangan.¹ O'z yurtida quloq qilinib Shimoliy Kavkaz o'lkasiga surgin qilingan, siyosiy qatag'on qilingan O'zbekistonlik, Tojikistonlik dehqonlar yana bir bor qatag'on tig'iga uchrab qattol tuzum qurboni bo'ldilar. Yurtdoshlari-mizning malum qismi o'sha Shimoliy Kavkazda shahid bo'lib, kafansiz, janozasiz ko'milib ketdilar. Shimoliy Kavkaz surgunidagi yurtdoshlardan hozirgacha 41 nafar kishi qatag'on qilingani aniqlandi². Moskva yonidagi Dmitrov lagerida 1933-1938 yillari ko'plab O'zbekistonlik maxbuslar, sobiq quloqlar "ikkinchi besh yillikning buyuk qurilishi" hisoblangan Moskva-Volga kanali qurilishida faol qatnashganlar, ularning ko'plari o'lib ketgan, ma'lum qismi kanal qurilib ishga tushgandan so'ng takroran qatag'on qilingan. Ulardan 51 kishi 1937-1938 yillari otilib Butovo poligoniga ko'milgani aniqlandi.

OGPU ning O'rta Osiyo bo'yicha doimiy vakilligining 1930 yil 5-aprelgacha bo'lgan vaqt ichida O'rta Osiyo Mintaqasi bo'yicha 2776 kishi qamoqqa olingani qayd etilgan.

1930 yil 1-apreldan 1-avgustiga qadar OGPU yo'li bilan 8113 kishi, shundan 2792 kishi O'zbekiston bo'yicha, 640 kishi Turkmaniston bo'yicha, 1198 kishi Tojikiston bo'yicha, 2193 kishi Qirg'iziston bo'yicha, 196 kishi Qoraqalpog'iston muhtor respublikasi bo'yicha qamoqqa olingan. Faqat 1- iyundan 1-avgustgacha bo'lgan davr ichida 3549 kishi qatag'on qilingani OGPUning O'rta Osiyo bo'yicha vakili German Petrovich Matson tomonidan qayd etilgan.

Ushbulardan aniqki, O'rta Osiyoda ham yoppasiga kollektiv-lashtirishning tezkorlik bilan amalga oshirilishida quloqlashtirish va dehqonlarni qatag'on qilish muhim vosita bo'lib hizmat qildi. GPUchilarning bundagi hizmati juda katta bo'lgan. Shu bois ular ko'plab mukofotlar bilan taqdirlanib turilganlar. Ilvin degan OGPU xodimini mukofotga taqdim qilish xatida sovetlarga qarshi turganlardan 8416 kishini qamoqqa olinishida, OGPU ning Maxfiy bo'limi taqdim etgan ma'ruzasi bo'yicha 11ming kishi ustidan xukm chiqqani, shundan 1100 kishi otuvga xukm etilganida uning ham hizmati borligi, shu bois uni jangovor Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlansa bo'ladi deyilgan.

Bunday zo'rovonlik, qo'pollik, qo'rqitish, ma'muriy taqid tazyiq qo'llash orqali joylarda o'tkazilgan kollektivlashtirish manzarasi respublika partiya davlat xukumat rahbariyatiga ma'lum edi.

Shimoliy Qozog'iston surginidagi yurtdoshlardan 21 nafari ayni 1937-1938 yillarda qatag'on qilinib otib yuborgani aniqlandi.¹

"Uchlik"ning faqat 1930 yil 22-fevralidan 2-iyungacha bo'lgan vaqt ichida 583 kishini otuvga va bundan bir necha bor ko'p miqdordagi kishilarni 3yil, 5yil, 8yil, 10yil muddat bilan

¹ Шамсутдинов Р.Т. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожиали оқибатлари, - Т.:Шарқ,2001.-Б-172.

² Шамсутдинов Р.Т. Мамажонов А.Шимолий Кавказ сургунидаги юртдошлар қисмати.-Т.:Шарқ.2005.-Б-241.

¹ Шамсутдинов.Р.Т. Акбарова.М. Шимолий Қозоғистон сургунидаги юртдошлар қисмати,-Т.:Шарқ,2009,-Б-67-68.

konslager, mehnat tuzatuv lageri qamog'iga, ko'plab insonlar o'zga yurtlarga –Sibr , Ural , Chuvashiston, Boshqirdistonga surgin qilinganlar.²

“Uchlik” 1937-1938 yillaqrdan yanada kengaygan, xodimlar miqdori ham ko'patgan va uning okruglarda bo'limlari ham bo'lgan poytaxt Toshkentda “Uchlik” tomonidan otuvga hukm qilingan maxbuslar Toshkent turmasida yoki siyosiy maxbuslar uyida saqlanayotgan bo'lsa, ular Yunusaboddagi qatlgohlarda, hozirgi Shaxidlar xotirasi majmuasi joylashgan joyda otilgan .Viloyatlar bo'yicha otuvga hukm etilgan maxbuslar qaysi okrugda qamoqda bo'lsalar ,o'sha joydagi .qatlgohda otilganlar ,yani xar bir okrugdagi qamoqchonalarda oliy jazoni ijro etuvchi xodimlar bo'lgan .Masalan, Andijon okrug sektori taqdimiga ko'ra Toshkentdagi respublika “uchligi”nechta maxbusni otuvga xukm qilgan bo'lsa xukm ijrosi Andijonda ro'yhat bo'yicha ,qaror asosida amalgam osgirilgan. Xullas respublikada markaziy qatlgoh va joylardagi mahalliy qatlgohlar faoliyatda bo'lgan .

Barcha qamashlar qatl etishlar NKVD tomonidan olib borilgan ,butun qamoqhona lagerlar tizimi uning qaramog'ida bo'lgan ,maxbuslarning do'stlari, qarindoshlari, tanish bilishlari ham qamoqqa olinib boshlangan. Terror rejali olib borilgan. NKVD ning viloyat boshqarmalari ,tuman bo'limlari qamoqqa olish rejalarini olib turganlar.

Mahbuslar shavqatsiz qiynoqlarga solinar ,kaltaklanar, boshqalar uchun ko'rsatmalar berishga majbur qilinganlar.ana shunday yo'l bilan olingan qandaydir ko'rsatmalar asosida yangidan ommaviy qamoqqa olishlar bo'lgan.

Tergovchilar kim ko'p urib, pachoqlash bo'yicha o'zaro musobaqalashganlar. Agar tergovchi kuniga biron bir mahbusni o'z “aybiga” iqror qildirishni uddalay olmasa, u aybdor xisoblangan.

Tergov ishlari bo'yicha ayblangan, qamoqqa olinganlar miqdori quyidagicha bo'lgan - 1937 yilda Ittifoq bo'yicha 936750 kishi O'zbekiston SSR bo'yicha 14873 kishi xibsga olingan, 1938 yilda esa Ittifoq bo'yicha 641762 kishi, O'zbekiston SSR bo'yicha 20641 kishi qamoqqa olingan. 1939 yili esa O'zbekiston SSR bo'yicha 695 kishi qamoqqa olingan.

Terror millatni buzishga, uni tanazzulga olib keldi. Albatta, Stalin qatag'on qilinganlar orasida ko'plab aybsizlar borligini bilardi. Ammo uning fikricha qurbonlar kompaniyasi ko'lamining bu darajada bo'lishi muqarrar edi. Terror faqat komunistlargagina qarshi qaratilmadi. Ular bilan birga millionlad pertiyasiz xizmatchi va ishchilar, dehqonlar, hunarmand–kosiblar, ruhoniylar qamoqqa olingan va konslagerlarga surgun qilingan. Ular tekin ishchi kuchlari safini to'ldirib turgan.

Shunday qilib 1937-1938 yillar davri “Katta terror” davrining kulminatsion nuqtasidir. Biz bu “Katta terror” kimlar tomonidan ijod qilingani va bu mudhish fojeaning ildizlari chuqur ekanligining va uni aniqlash yo'lida turli qarashlar talqinlar borligining ham guvohi bo'ldik.

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ayon bo'ladiki siyosiy qatag'on va uning bir qismi “Katta terror” ning yuzaga kelishida muayyan obektiv sabablar ham bo'lgan .Barcha joylarda bo'lganidek, SSSR ichki ishlar xalq komissari Yejovning 1937yil 30-iyuldagi 00447 sonli mutloqo maxfiy tamg'a ostidagi “Sobiq quloqlar jinoyatchilar va boshqa antisovet elementlari”ni qatag'on qilish bo'yicha operatsiya o'tkazish to'g'risidagi operativ buyrug'i O'zbekistonda ham tezkorlik bilan bajarildi. Bu ulkan vazifani bajarishda respublika,okrug rayon, partiya tashkilotlari sovetlarning ijroiya komitetlari ichki ishlar xalq komissarligi va uning joylardagi sektor va bo'limlari xodimlari jonbozlik ko'rsatdilar.

3. Qatag'on qurbonlarining hozirgi avlodlari

1937 yil 30 iyuldagi SSSR ichki ishlar halq komissari Nikolay Yejov imzosi bilan “Sobiq quloqlar jinoyatchilar va boshqa antisovet elementlarni qatag'on qilish boyicha operatsiya to'g'risida ”gi 00447 –sonli operativ “Mutloqo maxfiy” Tamg'a ostidagi buyruq

² Шамсутдинов.Р.Т. Коллективлаштириш қурбонлари ҳақида янги маълумотлар.//Ватанимиз ўтмишидан.Андижон:Andijon NM, 2007,-Б-29.

qabul qilindi, va bu joylarda tegishli tartibda amalga oshirilishi uchun “Uchlik”lar tuziladi . Bu davrda O‘zbekistonda tuzilgan “ Uchlik” tarkibi quyidagicha bo‘lgan:

1 O‘zbekiston SSR Ichki ishlar komissari D.Apresyan (rais).

2 O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi kotibi Usmon Yusupov (a’zo)

3 O‘zbekiston SSR prokurori Sheyndlin (a’zo).

4 Davlat xavfsizlik Komiteti 8-bo‘lim boshlig‘i Boronenkodan (kotib) iborat edi¹.

1937-1938 yillardagi qatag‘on siyosati Jalaquduq tumaniga ham o‘z tasirini ko‘rsatmay qolmadi. Jalaquduqlik qanchadan – qancha yurtdoshlarimiz ushbu qatag‘onning qurboniga aylandi. Qanchadan –qancha begunoh insonlar quloqqa tortilib qatag‘on qilindi. Qanchadan – qancha begunox insonlarning yostig‘i qurib, xalqimiz o‘zining fidoiy, jasur, mard, ziyoli o‘g‘lonlaridan ayrildi.

Juda ko‘p ayollar bevalikda farzandlar esa yetimlikda qoldi. Eng yomoni ularning farzandlariga , qarindosh urug‘lariga “Quloq”ning farzandi degan tamg‘a bosildi. va ular turli xil xuquqlardan ;masalan saylov xuquqidan mahrum qilindi. Ushbu qatag‘on siyosati halqimiz boshiga tushgan eng ogir musibat bo‘ldi.

“Uchlik”ning 1938 yil 7fevraldagi yig‘ilishi 69 sohli bayonnomasida 165 maxbus ustidan xukm chiqarildi. Ulardan 134 mahbus otuvga , 30 mahbus 10 yil qamoq jazosiga xukm etilgan. 1 kishining tergov ishlari to‘xtatilib jazodan ozod qilingan .

Otuvga xukm etilganlar orasida Jalaquduqlik yurtdoshlarimiz ham bo‘lgan. Ular quyidagilar;

1. Jiyamuratov

Xo‘jamberdi -1890-yil tug‘ilgan. Jalaquduq tumani Jalaquduq qishlog‘idan. Sobiq quloq 1932 yil 1 yilga qamalgan xibsga olingan paytda kolxoz a‘zosi .

Quloq bosmachilik guruhi rahbari kolxozchilarni terroristik ruhga davit etganlikda, kolxoz mulkini talon-taroj qilganlikda faol kolxozchini o‘ldirish bilan qo‘rqitganlikda, aksilinqilobiy , isyonkorlik targ‘iboti olib borganlikda ayblangan.¹

Shu kabi ayblar bilan Jiyamuratov Xo‘jamberdi qatag‘on qurboniga aylandi. Bu tuxmatlar, bo‘xtonlar birgina Jiyamuratov Xo‘jamberdining boshiga tushmadi. Uning yaqinlari ham bu azobni boshidan kechirganlar. Uning farzandlari Xo‘jamberdiev Bektosh, Xo‘jamberdiyev Kamol, Xo‘jamberdiyeva O‘g‘iloy, Xo‘jamberdiyeva Risolatlar ham ancha paytgacha taqib ostiga olingan.

Xozirgi kunda Jalolquduq tumani Qatortol qishlog‘i Katta polvon mahallasi Yashasin ko‘chasida Jiyamuratov Xo‘jamberdining farzandi Xo‘jamberdiyev Kamol tog‘a istiqomat qilib kelmoqda. Xo‘jamberdiyev Kamol tog‘aning so‘zlariga qaraganda Jiyamuratov Xo‘jamberdining 2 o‘g‘li va 2 qizlari bo‘lgan.

Jiyamuratov Xo‘jamberdining katta o‘g‘li Xo‘jamberdiyev Bektosh bo‘lib uning Iqbol, Oybek, Maxkamboy, Tavakkul, Ixlos, ismli o‘g‘illari, Mukarram, va Muqaddam ismli qizlari hozirda barhayot.²

Jiyamurodov Xo‘jamberdining kichik o‘g‘li Xo‘jamberdiev Kamol u 1928-yilda tug‘ilgan va hozirda Jalaquduq tumani Qatortol qishlog‘i Kata polvon mahalla fuqarolar yig‘ini Yashasin ko‘chasida istiqomat qilib kelmoqda. Ho‘jamberdiev Kamolning 4 o‘g‘li va 3 qizi bo‘lib o‘g‘illaridan katta o‘g‘li Xo‘jamberdiev Abdumutal og‘ir hastalik tufayli 2007-yilda vafot etgan. Xozirda 3o‘g‘li va 3qizi barhayot.

Xo‘jamberdiyev Kamol tog‘aning Xo‘jamberdiyev Ravshan, Xo‘jamberdiyev Bahtiyor, Xo‘jamberdiyev Farhod ismli o‘g‘illari Oltinoy, Oydinoy, Xadicha isimli qizlari bor. Xo‘jamberdiyev Kamol tog‘aning turmush o‘rtog‘ining ismi Xo‘jamberdiyeva Anorxon bo‘lib

¹ Шамсутдинов Р. Т. Курбонов Х. “Учлик” хайъати мудхиш мужодала// Тафаккур, 2009,4-сон,-Б-45.

¹ Катагон қурбонлари. (1938-йил феврал, сентябр.) Бешинчи китоб. Тузувчилар гуруҳи Р.Шамсутдинов,Х.Курбонов,Ж.Расулов,Ф.Эгамбердиев,У.Букимметов.Т.: Шарқ,2009,-Б-72.

² Jiyamuratov Xo‘jamberdining nabirasi Xo‘jamberdiyev Iqbol bilan bo‘lgan suhbatimizdan. 2011-yil.1-may.

u 1932-yilda tugʻilgan. Ular 4 oʻgʻil va 3 qizni birgalikda tarbiyalab voyaga yetkazdilar. Hozirgi kunda bu farzandlar turli sohalarda faoliyat yuritib kelmoqdalar.

Jiyamuratov Xoʻjamberdining Oʻgiloy ismli qizi boʻlib u 1932 yilda tugʻilgan va 2000 yilda vafot etgan. Xoʻjamberdiyeva Oʻgʻiloyi 3 nafar farzandi boʻlib ular Tursinboy, Joʻraboy, va Umrzoqlardir. Oʻgʻillaridan Joʻraboy va Umrzoqlar vafot etgan. Oʻgʻli Tursunboy xozirda xayot.

Jiyamuratov Xoʻjamberdining ikkinchi qizi Xoʻjamberdiyeva Inoyat boʻlgan. U 1934 yilda tugʻilgan va 2002 yilda vafot etgan. Uning yolgʻiz Risolat ismli qizi xozirda xayot.

Jiyamuratov Xoʻjamberdi koʻp yillar davomida kolxozda brigadr boʻlib ishlagan. Xoʻjamberdining oʻgʻli Xoʻjamberdiyev Kamol togʻaning yodga olishicha uning dadasi tumanda oʻziga toʻq kishilardan biri boʻlgan, qishloqqa, maxallaga koʻp nafi teggan. qishloq kattalari uni Xoʻjamberdi boy deb atashgan. Qishloqliklar yodida oʻchmas iz qoldirgan Jiyamuratov Xoʻjamberdi 1938 yil 6 fevralda uyidan olib chiqib ketishadi.

Xoʻjamberdiyev Kamol togʻaning yodga olishicha ikkita otliq askar ularning uylariga kelib uning dadasini chaqiradi Kamol togʻa bu paytda 10 yoshda boʻladi. U dadasini chaqirib bergandan soʻng uni olib ketishadi. Shunda dadasi eshik oldida turgan oʻgʻli Kamolga men albatta qaytaman mendan xavotir olmanglar deb chiqib ketadi.

Shu ketgan boʻyicha Jiyamuratov Xoʻjamberdi uyga qaytib kelmaydi. Keyinchalik uni otib yuborgani xaqida xabar keladi.¹

Xoʻjamberdi vafot etgandan soʻng oilani boshqarish uning ayoli Xoʻjamberdiyeva Maryambuvining boshiga tushadi. Yolgʻiz boshi bilan ikki oʻgʻil ikki qizni tarbiyalab voyaga yetkazadi. Maryambuvi taqdir toqozosi bilan 1970 yilda vafot etadi Oilani boshqarish uning oʻgʻli Xoʻjamberdiyev Bektosh zimmasiga tushadi. Xoʻjamberdiyev Bektosh togʻa koʻp yillar davomida kolxozda suvchi boʻlib oilasini boqadi. Lekin bevaqt ajal uni ham oʻz domiga tortmay qolmadi, u ham 2000 yilda vafot etadi. Uning farzandlari ham dadalari kabi chinqirab qolishadi.


Jiyamuratov Xoʻjamberdining nabirasi yani Kamol togʻaning oʻgʻli Xoʻjamberdiyev Ravshan dadasi Kamol togʻaning Xoʻjamberdi toʻgʻrisidagi quyidagi gaplarini yodga oladi “Bizni katta dadamiz Jiyamuratov Xoʻjamberdi nixoyatda saxiy odam boʻlganini qoʻni qoʻshni qarindosh urugʻga mexribon boʻlganini va noxaqdan ayblanib, qishloqda kimlardir Xoʻjamberdini koʻrolmay uni oʻsha yerdagi Ichki ishlar xodimlariga yolgʻon uydirmalar toʻqib sotib qoʻyganligini ” yodga olib dilda armon koʻzda yosh bilan bizga aytib beradi.¹

Jiyamuratov Xoʻjamberdining qolgan nabiralari ham otalaridan e eshitgan gaplarni bizga aʼlam bilan soʻzlab berdi.

¹ Jiyamuratov Xoʻjamberdining oʻgʻli Xoʻjamberdiyev Kamol bilan boʻlgan suhbatimizdan. 2011 yil, 8-may.

¹ Jiyamuratov Xoʻjamberdining nabirasi Xoʻjamberdiyev Ravshan bilan boʻlgan suhbatimizdan. 2011 yil, 8-may.

Jiyamuratov Xo'jamberdi(1890-1937)



2. Jaynoqov O‘rozboy-1910yil tug‘ilgan. Jalaquduq tumani Qotortol qishlog‘idan, imomning o‘g‘li 1933 yil 5 yil qamoq jazosiga tortilgan, xibsga olingan paytda kolxozchi.

Aksilinqilobiy quloq guruhlar bilan aloqada bo‘lganlikda, kolxoz tuzumiga qarshi targ‘ibot olib borganlikda, kolxozchi faollarni dopposlaganlikda ayblangan.

Shu kabi noxaq ayblar bilan begunox bo‘lgan Jaynoqov O‘rozboy qatag‘onning qurboniga aylanadi.

Jaynoqov O‘rozboy 1938 yilda otuvga xukm qilinadi .U bu paytda yosh bo‘lgani va uylanmaganligi ,yolg‘iz farzand bo‘lganligi sababli undan xech qanday nasl qolmaydi.

Biz Jaynoqov O‘rozboy xaqidagi ayrim ma‘lumotlarni jiyani Madraximov Isroildan olishga muvaffaq bo‘ldik.

Madraximov Isroil tog‘asi Jaynoqov O‘rozboy yodga olishicha Jaynoqov O‘rozboy o‘sha paytda kolxoz a‘zosi bo‘lgan uning xech qanday aybi bo‘lmaganligini aytadi. Madraximov Isroilni aytishicha 1938 yil fevral oyida Qotortol qishlog‘idan besh kishi olib ketilib noxaqdan otib yuborilgan, ularning barchasi Madraximov Isroilning qarindosh urug‘lari bo‘lgan .

Men o‘rganishim kerak bo‘lgan 4 ta qatag‘on qurbonlari ham aynan ana shular bo‘lgan.Bu qatag‘onga uchragan beshinchi shaxs xaqida kitoblarda ma‘lumot yo‘q. U Xasanov Odil bo‘lib u 1912 yilda tug‘ilgan u ham bevaqt qatag‘onga uchraganligi sababli undan ham xech qanday nasl qolmagan.¹

3. Madrahimov Isroil-1910 yilda tug‘ilgan Jalaquduq tumani So‘fi- qishlog‘idan, Sobiq quloq qatag‘ondan qochgan xibsga olingan paytda kolxoz a‘zosi.

Quloq bosmachilik guruxi a‘zosi, paxta terimiga, kolxoz faollariga qarshi targ‘ibot olib borganlikda ayblangan¹

Madraximov Isroil otuvga xukm qilingan paytda 28 yoshda edi. Endigina uylanib farzand ko‘rgan Madraximov Isroil 1638 yil “Uchlik”ning qarori bilan otuvga xukm qilinadi . Uning ayoli Madraximova Inobat aya qo‘lida 1 yosh bo‘lgan chaqalog‘i bilan yolg‘iz qoladi. Lekin ko‘p o‘tmay uning farzandi Madraximov Azizbek 3yoshga yetmay vafot etadi. Avval turmish o‘rtog‘ining o‘limi ikki yildan so‘ng farzandi Madraximov Azizbekning o‘limi Inobat ayaning o‘limiga sabab bo‘ldi.

Shu sababli Madraximov Isroildan xech qanday zurriyod qolmagan .Uning bugungi kunda faqatgina bitta ukasi xayotdir . U hozirda Jalolquduq tumani Qotortol qishloq fuqorolar yig‘ini Katta polvon mahalla fuqorolar yig‘ini Yashasin ko‘chasida yashovchi Madraximov Isroildir . U 1914 yilda tug‘igan bo‘lib ular to‘rt o‘g‘il bo‘lgan

Madraximov Isroil, Anvarjon , Madamin , Yo‘ldashvoylardir .Anvarjon tog‘aning qolgan ukalari ham o‘tib ketishgan.

Madraximov Anvarjon tog‘aning 3 o‘g‘li va 3 qizi bor ular quyidagilar;

1 Madraximov Shukur 1952 yil tug‘ilgan

2 Madraximov Muhammadraxim 1962 yil tug‘ilgan

3 Madraximov Uzoqvoy 1965 yil tug‘ilgan

4 Madraximova davlatxon 1967 yil tug‘ilgan.

5 Madraximova Rohatxon 1956 yil tug‘ilgan

¹ Jaynoqov O‘rozboy jiyani Madraximov Isroil bilan suhbatimizdan.2011 yil 8-may.

¹ Катагон курбонлари (1938 йил феврал,сентябр.)Бешинчи китоб.Тузувчилар гурухи. Шамсутдинов Р, Курбонов Х,Расулов Б, Эгамбердиев Ф, Бекиметов У. Т.:Шарк, 2009,-Б-73

6 Madraximova Ko'payxon 1958 yil tug'ilgan.

Ular bugungi kunda turli sohalarda faoliyat yuritib kelmoqda . Madraximov Isroilni ukasi Madraximov Madaminni o'g'illari ham xozirda barxayot. Ular xozirda Jalaquduq tumani Jalaquduq qishloq fuqorolar yig'ini O'rg'i maxallasida yashab kelmoqda .Uning o'g'illari Madraximov Mirkomil va Madraximov Ilxomlar turli sohalarda faoliyat yuritmoqda .

Madraximov Isroilning yana bir ukasi Madraximov Yo'ldashvoy 1924 yilda tug'ilgan va 1940 yilda vafot etganligi sababli undan ham xech kim qolmagan .

Madraximov Isroil xaqida uning ukasi Madraximov Anvarjon tog'adan ma'lumot olishga erishdik.

Madraximov Anvarjon tog'aning yodga olishicha Madraximov Isroil o'qimishli va ziyoli bo'lgan bu paytda Madraximov Isroil Hindistonda o'qib yurgan bo'lgan. U ota onasini ko'rgani kelgan paytda xibsga olingan va noxaqdan begunox bo'lgan Madrahimov Isroilni otib tashlaganlar.

Madraximov Anvarjon tog'aning aytishicha akasi Madraximov Isroil juda ko'p tillarni bilgan, xususan ingliz ,hind, arab, fransuz,rus tillarida bimalol gaplasha olgan.


U o'qimishli ziyoli ayni paytda chet elda o'qiganligi sababli uni chet el josusi deb ham ayblashgan. Madraximov Anvarjon tog'aning yodga olishicha ularning dadasi Madraximboy tumanda juda katta boylardan biri bo'lgan Jalolquduqdagi xozirgi istiroxat bog'i o'rnida ularning uylari bo'lgan. Bu uyni ulardan tortib olib Tuman idorasi sifatida foydalanishgan .Oila a'zolarini esa Sibirga surgun qilgan. Lekin bu oila surgundan qochib Qorg'ontepaning Savay jamoa xo'jaligiga borib shu yerda yashaganlar. Dadalari Madraximboy 1970 yilda vaot etadi. Dadasining vafotidan so'ng bu oila Jalolquduq tumanining Qotortol qishlog'iga kelib o'rnashadi.Dadasining vafotidan so'ng bu oilani boshqarish Madraximov Anvarjonning yelkasiga tushadi. U ko'p yillar davomida kolxozda brigadr bo'lib ishlaydi.

Bu oilaning hali Savayga, hali Qatortolga ko'chishi natijasida Madrahimov Isroildan xech qanday hujjat ham, rasm ham qolmagan.

Madraximov Muxammadraxim amakisi Madrahimov Isroil xaqida dadasidan eshitgan quyidagi gaplarni yodga oladi. "Amakimiz judayam o'qimishli bo'lgan chet elda turli xil bilim dargohlarida taxsil olgan, amakimiz Madrahimov Isroilni hech qanday aybi bo'lmagan."¹

¹Madrahimov Isroilni jiyani Madrahimov Muhammadraxim bilan bo'lgan suhbatimizdan,2011 yil 8-may.

Norboyev Madrahimboy(1870-1950)



4. Mirzaqulov Mirzaxoldor – 1919 yilda tug‘ilgan. Jalaquduq tumani Qatortol qishlog‘idan sobiq quloq. 1932 yil 3 yilga surgun qilingan. 1933 yil 5 yilga qamalgan. Xibsga olingan paytda kolxoz a‘zosi

Quloq bosmachilik guruxi a‘zosi. Kolxozchilar orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, kolxozchilarni doimiy ravishda kaltaklaganlikda ayblangan.¹

Shu kabi ayblar bilan Mirzaqulov Mirzaxoldor ham qatag‘onning navbatdagi qurboniga aylangan. Mirzaqulov Mirzaxoldor ham yolg‘iz o‘g‘il bo‘lgan 28 yoshda otuvga xukm qilingan. Mirzaqulov Mirzaxoldorning o‘limidan so‘ng uning avval dadasi Mirzaqulov Mirzakarim, keyinchalik onasi Xaticha xola ham vafot etgan. Biz Mirzaqulov Mirzaxoldor xaqida ayrim ma‘lumotlarni uning xolasini o‘g‘li Madraximov Anvarjin tog‘adan olishga muvaffaq bo‘ldik.

Anvarjon tog‘aning yodga olishicha xolasining o‘g‘li Mirzaqulov Mirzaxoldor o‘sha paytlarda kolxozda suvchi bo‘lib ishlagan. Uning xech qanday aybi bo‘lmagan²

Mirzaqulov Mirzaxoldor uylanmaganligi oila qurmaganligi sababli undan hech qanday avlod qolmagan.

Xulosa

Shunday qilib, Lenin asoslagan, Stalin takomillashtirgan Sovet rejimining qatag‘on siyosatining eng yuqori nuqtasiga ko‘tarilgan davri 1937-1938 yillardir. Budavr “Katta terror” davrining kulminatsion nuqtasi, u kimlar tomonidan ijod qilinganini va bu mudxish voqea fojeaning ildizlari chuqur ekanligini va uni aniqlashda turlicha qarashlar va talqinlar bor. Biz bu fojeada birgina Stalinni aybdor qilish va mudxish fojeaning faqat Stalin nomi bilan bog‘lash adolatdan emasligini ham bir oz angladik.

“Katta terror”ning yuzaga kelishida muayyan obektiv sabablar ham bo‘lgan. 1937-1938 yillardan Katta terrorning yuzaga kelishida maxalliy partiya funksionerlarining o‘rni va ro‘li benihoya katta bo‘lganligini guvoxi bo‘ldik.

Sobiq ittifoqning bir qismi bo‘lgan O‘zbekistonda ham ana shu maxalliy partiya funksionerlari yangi saylov tizimidan qo‘rqib xadiksirab xavfsirab markazga yo‘llagan xatlarida axborotlarida rasmiy anjumanlardagi chiqishlarida respublikaning shaxar va qishloqlarida sanoat korxonalarida kolxoz va savxozlarda xalq xo‘jaligi tarmoqlarida antisovet kuchlar burjua millatchilari ruhoniyyat vakillari, sobiq quloqlar, jinoyatchilarni zudlik bilan qamoqqa olish, eng uchiga chiqqanlarini otib yuborish takliflarini bayon qilganlar. Oqibatda mahalliy tashabbus inobatga olindi xatto O‘zbekiston rahbariyati Markazdan qatag‘on qilinadiganlar miqdorini oshirib berish to‘g‘risida qo‘shimcha limit berish to‘g‘risida so‘raganlarini ham guvoxi bo‘ldik.

Barcha joylarda bo‘lganidek SSSR Ichki ishlar xalq komissari N. Yejovning 00447 – sonli operativ mutloqo maxfiy tamg‘a ostidagi 1937 yil 30-iyuldagi “Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa antisovet elementlarni” qatag‘on qilish bo‘yicha operatsiya o‘tkazish to‘g‘risida buyrug‘i O‘zbekiston Respublikasida tezkorlik bilan bajarildi. Bu ulkan vazifani

¹ Катагон курбонлари (1938 йил феврал, сентябр) Бешинчи китоб. Тузувчилар гурухи. Р. Шамсутдинов, Х. Курбонов, Ж. Расулов, Ф. Эгамбердиев, У. Бекиметов. Т.: Шарк, 2009, -Б-73.

² Madrahimov Isroilni jiyani Madrahimov Muhammadrahim bilan bo‘lgan suhbatimizdan, 2011 yil 8-may.

bajarishda respublika okruglar, rayonlar partiya tashkilotlari sovetlarning ijroiya komitetlari, ichki ishlar xalq komissarligi va uning joylardagi sektor va bo'limlari rahbarlari xodimlari jonbozlik ko'rsatib faoliyatda bo'ldilar.

Bu operatsiyani o'tkazishda ko'plab noqonuniy tadbirlar amalga oshirildi. Inson xaq huquqlari mislsiz toptaldi begunoh yurtdoshlarimizga to'qima soxta ayblar qo'yildi.

“Uchlik”ning xukmi bilan minglab odamlarimiz otuvga xukm qilindi. Xukmlar joylarda tezkorlik bilan ijro etildi. Har bir okrugda qatlgohlar nomalum qabristonlar paydo bo'ldi. 8-10 yil mexnat tuzatuv lageriga xukm qilingan qatag'on qurbonlari uzoq-uzoq yurtlarga Shimolga, Uzoq Sharqqa, Sibirga, Uralga Shimoliy Qozog'istonga surgun qilindilar.

Ularning katta qismi o'sha begona yurtlarda qamoq azoblariga bardosh bera olmay xalok bo'ldilar. Juda ham oz qismi keyinchalik ozod bo'lib yurtga qaytdilar.

Bugungi kunda Jalolquduqlik Jiyamuratov Xo'jamberdi, Jaynoqov O'rozboy, Madraximov Isroil, Mirzaqulov Mirzaxoldorlarning yaqinlari, avlodlari, qavmu-qarindoshlari xayot albatta Mustaqillik tufayli Tarixiy xaqiqatning qaror topishi qatag'on bo'lgan yurtdoshlarimizning asossiz va nohaq ayblari olib tashlandi.

Ularning avlodlari yelkasidagi “xalq dushmani”ning o'g'li “quloqning farzandi” “bosmachining farzandi” kabi tamg'alar ham yuvildi.

Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak manaviyat-engilmas kuch” asarida el yurtimiz ko'p asrlik tarixi davomida ko'plab mashum xatarlarni necha bor ko'rgani ularning jabru-jafosini tortganini takidlab “ana shu fojeali o'tmish bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi bugungi voqeilikni teran taxlil qilib mavjud taxdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga davat etishi lozim. O'z tarixini bilmaydigan kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q”. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan.

Vatan uchun, millat uchun jon fido etgan, sovet rejimining siyosiy qatag'oniga uchragan yurtboshimiz fikri bilan aytganda “Ma'naviy jasorat” ko'rsatgan yurtdoshlarimizni nomma-nom aniqlash, ularning keyingi taqdirini bilish avlodlarini izlab toppish, ulardan xotiralar olish istiqlool yaratib bergan inomlardan yana biridir zero bugungi kunda istiqlool, erk, ozodlik, millat, or nomus uchun kurashgan ajdodlarimiz ruhini shod qilish ham biz avlodlarning muqaddas burchimizdir.

Xulosa qilib aytganda, istibdod davrida qatag'on qurboni bo'lgan nohaq zulmga grifor etilgan Jalolquduqlik Jiyamuratov Xo'jamberdi, Jaynoqov O'rozboy, Madrahimov Isroil, Mirzaqulov Mirzaxoldor kabi insonlarni bugun biz istiqlool nematidan baxramand bo'layotgan yosh avlod hurmat va ehtirom bilan yodga olishimiz ham qarz, ham farzdir. Bu xar birimizning insoniy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ, 1998.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Т.: Ўзбекистон, 2008.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Қатағон қурбонлари хотирасини абадийлаштириш тўғрисида”. – Тошкент, 1999 йил 12 май.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Қатағон қурбонларини ёд этиш кунини белгилаш тўғрисида”. – Тошкент, 2001 йил 1 май.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори “Ватан ва халқ озодлиги йўлида қурбон бўлган фидойилар хотирасини абадийлаштириш тўғрисида”. – Тошкент, 1999 йил, 22 июл.
6. Шамсутдинов Р.Т. Қурбонов Х. “Uchlik ha'yati mudhish mujodala”// Тафаккур, 2009, 4-сон, -Б-67-68.
7. Хайитов Ш. Қишлоқ хўжалигини коллективлаштириш даврида ўзбек мухожирлигининг вужудга келиши, // Ўзбекистон тарихи, 2008, 1-сон, -Б-45-46.
8. Шамсутдинов Р.Т. Ўзбекистонда советларнинг кулоқлаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Т.: Шарқ, 2001.
9. Шамсутдинов Р.Т. Истиклол йўлида шаҳид кетганлар. –Т.: Шарқ, 2001.
10. Шамсутдинов Р.Т. Қишлоқ фожеаси: жамоалаштириш, кулоқлаштириш, сургун (Ўрта Осиё республикалари мисолида). –Т.: Шарқ, 2003. амсутдинов Р.Т., Мамажонов А. Шимолий Кавказ сургунидаги юртдошлар қисмати. –Т.: Шарқ, 2005.
11. Репрессия: 1937-1938 годы. Документы и материалы. Выпуск №1. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Каримов Н.Ф., Юсупов Е.Ю. отв. ред. Н.Ф.Каримов. – Т.: Шарқ, 2005, - 285 с.
12. Шамсутдинов Р.Т. Қатағон қурбонлари. (1937 йил 10 август-5ноябр). Иккинчи китоб. – Т.: Шарқ, 2007
13. Репрессия 1937-38гг. Документы и материалы. Выпуск 3. Жертвы Большого террора из Узбекистана. 1937 год, ноябр. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Юсупов Е, Мамажонов А, Дўсматов Е. – Т.: Шарқ, 2007.
14. Репрессия 1937-38гг. Документы и материалы. Выпуск 4. Жертвы Большого террора из Узбекистана. 1937 год, декабр. Сост: Шамсутдинов Р.Т., Абдуллаев М., Дўсматов Е.П., Курбанов Х.Р. –Т.: Шарқ, 2008
15. Қатағон қурбонлари. 1938 йил феврал, сентабр. Бешинчи китоб. Тузувчилар: Шамсутдинов Р., Қурбонов Х., Расулов Ж., Егамбердиев Ф., Бекиметов У. Т.: Шарқ, 2009.
16. Шамсутдинов Р. ва бошқалар. Тарихнинг ҳасратли саҳифалари. –Т.: Шарқ, 2006.
17. Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка. 1929-1955гг. Документы и материалы. Том I-III Под редакцией Д.Алимовой Сост: Р.Т.Шамсутдинов, Б.Расулов. –Т.: Шарқ, 2006.
18. Шамсутдинов Р.Т. Катта террор айбдорлари ҳақида янгича талқинлар. - Андижон, 2007.
19. Ватанамиз ўтмишидан. Маъсул муҳаррир: Шамсутдинов Р.Т. -Андижон, Andijon NM, 2007.
20. Андижон тарихидан лавҳалар. Маъсул муҳаррир: Шамсутдинов Р.Т – Андижон, Andijon NM, 2008.
21. Шамсутдинов Р., Акбарова М. Шимолий Қозоғистон сургунидаги юртдошлар қисмати. Т.: Шарқ, 2005.
22. Шамсутдинов Р.Т. Мамажонов А. Шимолий Кавказ сургунидаги юртдошлар қисмати. Т.: Шарқ, 2009.
23. Shamsutdinov. R.T. Vatan tarixi, 3-kitob, Т.: Sharq, 2010.
24. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи, Ўзбекистон совет муштамлакачилиги даврида, Т.: Шарқ, 2001.

25. Хайитохунов П. Абдуллаев П. Истиқлол уйғотган диёр, Жалақудук, Андижон, 1996.
26. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 7-жилд, Давлат илмий нашриёти, 2004,
27. www.uzmeros.uz “Мерос” xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiya xayriya jamg‘armasi fondi kitoblaridan. malakaviy ishimning mazmuni, amaliy ahamiyatiga ijobiy tasir qildi.